

## Men bilgan urush

"Chillak", "Oq terag-u, ko'k terak", "Quvlash-machog", "Yashinmachog"... Bolaligimizda shu kabi turli-tuman o'yinlar juda ko'p bo'lsa-da, asosiy vaqtimizni "Urush-urush" bilan o'tkazardik. Jang maydoni — duch kelgan choldevor. Qo'limizda esa yog'ochdan yasalgan, "so'nggi rusumdagi avtomatlar".

3-bet

## Domlani professor qilgan — ayoli

"O'zim o'qigan institutda ishlayapman, ustozlarimday ilm yo'lidan ketib, yaxshi olim bo'lmoqchiydim. Ammo shaxsiy hayotimdagi muammolarim bois orzularimga erisholmaymanmi, deb qo'rqaman.

5-bet

## "She'rlarim mag'zi larzon, bolalar uchun arzon..."

Saodat Toji o'sha davrning eng ilg'or bolalar shoirlari bilan babbaravar ijod maydonida ot surish imkonini topdi. Buning bari osonlik bilan amalga oshadigan yumush emasdi. U tinimsiz ijod qilar, Toshkentga borish esa unga bozorga borishdek ish bo'lib qolgandi.

14-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

Yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 5-may, chorshanba № 18 (9343)

Xalq ziyolilari gazetasi

## "Ma'rifat" gazetasi

tahririyati jamoasi "Oltin qalam" XV milliy mukofotini qo'lga kiritdi

"Turkiston" san'at saroyida "Oltin qalam" XV milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovning taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Quvonarlisi shuki, bosma ommaviy axborot vositalari ichida "Ma'rifat" gazetasi va "Hurriyat" gazetasi tahririyati birinchi o'ringa loyiq ko'rildi. Bunda tahririyat jamoasi bilan birga fidoyi, jonkuyar gazetxonlarimizning ham hissasi bor. Mukofot muborak bo'lsin, aziz mushtariylar!



## Chin do'stga maktub



8-9-betlar

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Haqiqiy mukofot, chin mukofot, oltin mukofot — "Oltin qalam" muborak bo'lsin "Ma'rifat" jamoasiga. Faqat va faqat haqiqatni yozib, elimizni ma'rifatga, ziyoga, ma'naviyatga yetaklashdan charchamang. "Oltin qalam"laringiz adolat, ma'rifat yo'ng'ichi bilan o'tkirlashib boraversin. Mukofot muborak bo'lsin, azizlarim!

Nurxon BEKNIYOZOV

— "Ma'rifat"da maqolalaringiz tez-tez chiqyapti-ya. Ijodkorlik qalbingizda bor ekanda yoki qonimgizdami?"

Bu gaplaridan quvonib, endi gapga og'iz juftlasam, yana biri:

— "Necha so'mdan chiqarishadi?" — desa bo'ladingi...

— Bir tiyinsiz. Mutlaqo tekin!

— Obuna bo'lish kerakdir-a?

— Kasbingizni hurmat qilsangiz, obuna bo'ling. "Ma'rifat"da ta'magirlik yo'q...

So'zlarimga ishondimi yoki yo'qmi, bilmadim...

Norchuchuk NORMURODOVA

Hamma narsa, jumladan ta'lim sifati pulga bog'liq emas. Pulning qanchaligiga bog'liq. Avval ancha qiynalar edim. Yaqindan beri ikki millioncha

qo'shildi. Natija yaxshi. O'quvchilarimga har hafta daftar, ruchka, chizg'ich sovg'a qilaman. Koptok, kitob ham olib beraman. Turli chiqimlar uchun o'quvchilarimdan pul yig'mayman. Bolalardan pul yig'ish o'qituvchini yerga uruvchi omil. O'qituvchi — ma'naviy boy. Moddiy nochorlik barchasini yuvib ketadi.

Muzaffar ISMOILOV



## Test savollari "Ma'rifat"da chop etilmogda

Bu yil ham Davlat test markazi va "Ma'rifat" gazetasi hamkorligi davom etishini ma'lum qilamiz. Abituriyentlarning test sinovlariga puxta va samarali tayyorgarlik ko'rishiga ko'maklashish maqsadida imtihon olinadigan fanlar bo'yicha

**Davlat test markazining aprobatsiyadan o'tgan test savollarini e'lon qila boshladik.**

Gazetamizga **obuna bo'lishni istasangiz**, hududingizdagi "Matbuot tarqatuvchi" va pochta bo'limlariga murojaat qilib, obunani rasmiylashtiring. Shuningdek, test savollari "Ma'rifat" mobil ilovasida ham berib boriladi. "Ma'rifat"ga obuna bo'ling!

Marifat

DTM

Obuna indeksi - 150.

www.marifat.uz

/marifat.uz

@marifatziyo

9-may — Xotira va qadrlash kuni

# Urushning birinchi kunayoq jasorat ko'rsatgan o'zbek o'g'loni

Tarix Vatan ozodligi yo'lida kurashgan qahramonlar nomini unutmaydi. Chinakam jasorat qachon bo'lmasin, qalqib yuzaga chiqaveradi. 1941-yil 22-iyunda fashistlar Germaniyasi Sobiq Ittifoqqa urush e'lon qilmasdan hujum boshladi. Urushning birinchi kunidayoq jasoratli o'zbek o'g'lonlari dushmanga qarshi jang maydoniga chiqdi. Ular bu yo'lida jonini ham ayamadi.



Bugun Zomin tumanidagi Yom qishlog'ida sakkiz mingdan ortiq odam istiqomat qiladi. Mazkur qishloq tarixi haqida O'rish Majidov qalamiga mansub "Men bilgan Yom va yomliklar" risolasida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Muallifning qayd etishicha, qadim qishloqning Ikkinchi jahon urushi davridagi o'tmishi ham qahramonliklarga boy. Nemis fashistlariga qarshi urushda ushbu qishloqdan 142 kishi Vatan himoyasi uchun otlangan. Shundan 116 nafari urushdan qaytmagan. Yurt himoyasi yo'lida jonini fido qilgan ana shunday yomliklardan biri – Brest qahramoni Avazmat Niyozmatovdir.

## Qirq yilda oshkor bo'lgan haqiqat

Avazmat Niyozmatovning singlisi, 82 yoshli Xosiyat Niyozmatovanning xotirlashicha, akasi dilkash, quvnoq va jusurligi bilan el og'ziga tushgan yigit bo'lgan. Avazmat texnikani boshqarish, ot choptirish bo'yicha katta mahorat egasi sifatida tanilgan. Shuning uchun ham o'sha yillari kolxozda mexanizator va ot sporti bo'yicha instruktor bo'lib ishlagan. U tuman, viloyat va respublika musobaqalarida ko'p marta sovrindor bo'lgan. Avazmat armiya uchun otlar tayyorlab berishda ham g'ayrat-shijoat ko'rsatgan.

Afsuski, Yom qishlog'idan Vatan mudofaasiga otlangan Avazmatning nomi ancha yillar "bedarak yo'qolgan" tamg'asi bilan tilga olindi. Uning askar ukasi Xolmat Niyozmatov va urush faxriylari tomonidan olib borilgan izlanishlar oxir-oqibat o'z natijasini berdi. O'sha vaqtda Sirdaryoda yashagan, asli zominlik bo'lgan 61 yoshli Madamin Hojiyevning 1981-yili "O'zbekiston" radiosi "Jasorat" dasturiga bergan intervyusi tarixiy haqiqatni oshkor qildi. "Bedarak yo'qolgan" Avazmat Niyozmatovning 125-o'qchi polk 2-batalyon jangchisi, Brest qal'asi himoyachisi bo'lgani aniqlandi.

Jasur jangchining qahramonligi 1988-yili Qahramon Brest qal'asi ilmiy kengashi, Sobiq Ittifoq Mudofaa vazirligi tomonidan tan olinib, Brest memorial majmuasi marmar taxtasiga ism-familiyasi yozib qo'yildi. Shuningdek, uning hayoti va qahramonligini targ'ib qilish uchun muzeyning 9-zalida alohida joy ajratildi. Shu tariqa, Vatan uchun kurashgan bir qahramonning nomi tarix sahifalaridan munosib o'rin oldi.

## Gitlerchilar zarbasini birinchi qabul qilganlar

Tarixdan ma'lumki, gitlerchilarning hujum zarbasini "Sharq darvozasi" bo'lgan Brest qal'asi garnizoni jangchi-chegarachilari birinchi bo'lib qabul qildilar. Ular orasida o'zbekistonliklardan Ahmad Aliyev, Muhammadjon Abduvaliyev, Avazmat Niyozmatov, Saidahmad Boytemirov, Tursun Xidirov, Madamin Hojiyev, Nurum Siddiqov va boshqalar mardonavor qarshilik ko'rsatib jang qildilar. Ulardan ba'zilari shu tuproqqa bosh qo'ydi. Ayrimlari esa Berlingacha bordi.

1941-yil 22-iyundagi janglarda Avazmat Niyozmatov bilan birga qatnashgan va uning jasoratini o'z ko'zi bilan ko'rgan Madamin Hojiyev bir qishloqda voyaga yetishgan. Ikki qishloqdosh 1940-yil sentabrda shu yerdan harbiy xizmatga birga jo'nashgan. Ular xizmat davrida bir polkning boshqa-boshqa rotalarida bo'lishgan. Mad-

amin Hojiyevning Niyozmatovlar oilasiga yuborgan xatida qayd etilishicha, Avazmatning rotasi qal'a tashqarisida, Madaminning rotasi esa Brest qal'asi ichida joylashgan.

Madamin Hojiyevning xotirlashicha, Avazmat Niyozmatov urush boshlangan dastlabki kunda qal'a himoyasining qahramoni sifatida nemislarining bir necha hujumlarini qaytargan. Bug daryosining qal'a ichidan o'tadigan irmog'i bo'ylab oqimga qarshi yuz metrcha masofa suzib borish jarayonida yarador bo'lishiga qaramay, shiddat bilan yugurib borib, nemislarining o't ochish nuqtasini qo'l granatalari bilan yakson qilgan. O'zi halok bo'lsa-da, dushmani chekinishga majbur etgan.

## Jasur jangchining so'nggi jangovar topshirig'i

Avazmat Niyozmatovning vzvod komandiri bo'lgan farg'onalik katta serjant Muhammadjon Abduvaliyevning xotiralarini ham diqqatga sazovor. Xususan, uning "Sirdaryo haqiqati" gazetasining 1989-yil 23-martdagi sonida "Zomin o'g'loni – Brest qahramoni" nomli maqolasida xotirlanishicha:

"...Dahshatli jang boshlangan kuni u ham ko'pchilik qatori qal'a ichida edi. To'satdan boshlangan hujum uyqudagi jangchilarimizni dastlab shoshirib qo'ydi. Oradan ko'p o'tmay hammamiz jangovar holatda turdik. Bizdan bir necha barobar kuchli bo'lgan dushman ham yerdan, ham ko'kdan tinimsiz hujum qilardi. Qal'ada harbiylardan tashqari ularning oilalari va yosh bolalari ham bor edi. Dushman bizni har tomonlama o'rab olganligi tufayli ayollar va bolalarni qutqarib qolish imkoniyati deyarli yo'q edi.

Qal'a qo'mondonligi uning sharqiy darvozasi tomonidan dushmanning nisbatan kuchsizligini payqab himoyachilardan bir guruhini qal'adan olib chiqib ketish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi. Biroq, aksiga olganday, mustahkam o'rnatib olgan dushman pulemyotchisi bu tomondan ham sira ko'z ochirgani qo'ymas edi. Shunda oddiy askar Avazmat Niyozmatov dushman pulemyotining ovozi o'chirish to'g'risida buyruq oldi. U Bug daryosi orqali qal'a tashqarisiga chiqq boshladi. Biroq uni sezib qolgan dushman tinimsiz o'qqa tutdi. Jasur jangchi yaralanganiga qaramay jangovar topshirig'ini ado etdi. Dushman dzotini portlatib yubordi. Ammo o'zi ham halok bo'ldi".

## Qahramonning jasorati izziz ketmadi

Urushdan keyin Zomin tumanidan bir guruh yurtdoshlarimiz Avazmat Niyozmatov qabrinu izlash va abadiylashtirish maqsadida ikki marotaba Brestga borib, uning nomini marmar taxtaga yozdirib keldilar. Yom qishlog'i qabristonidagi Avazmat Niyozmatovning ramziy qabriga Brestdan olib kelingan tuproq qo'yildi. Brest qahramoni o'sib-ulg'aygan xonadonda hozirda uning ukasi Xolmat Niyozmatovning oila a'zolari istiqomat qilmoqda.

Bugun Vatan ozodligi uchun jasorat ko'rsatgan Avazmat Niyozmatov va u singari ko'plab o'zbek o'g'lonlarining mardligi avlodlar e'tirofida. Yurt himoyasi uchun o'z jonidan kechgan mardlarning shonli hayot yo'li esa yosh avlod vakillariga chinakam vatanparvarlik namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Akbar BOBOBEKOV,  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Tarix fakulteti katta o'qituvchisi

Har safar mahalladan o'tayotib darvoza yoniga qo'yilgan stolda oppoq yaktak kiygan qo'lida oq dastro'moli bilan yelpinib o'tirgan Turg'unbo'y otaga ko'zim tushadi. Ko'pchilik u beozor, muloyim keksa nuroniy inson oldidan shunchaki o'tib ketolmaydi. Uning suhbatini uchun to'xtaydi-yu, soatlab qolib ketadi. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bo'lgan bu otaxonni katta-yu kichik birdek hurmat qiladi. Har yili 9-may arafasida o'quvchilarim bilan otani yo'qlab borganimizda, sevinganidan ko'ziga yosh oladi.

## Bir ko'zidan ayrilgan ota

"— Men bu bolalarga juda havas qilaman, qanday baxtli bolalar-al!", — deydi Turg'unbo'y ota xursandchiligini yashirolmay. "Afsuslar bo'lsinki, mening bolaligim o'ta og'ir kunlardagi to'g'ri kelgan", — deya suhbatini davom ettiradi ota. "Yigitlik davrim esa Ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri keldi."

Darhaqiqat, endigina 17 bahorni qarshilagan Turg'unbo'y otaning ayni yigitlik pallasi jang maydonlarida kechdi. Rossiyaning Smolensk shahrida mardonavor jang qildi. Og'ir yaralanib, bir ko'zidan ajraladi. Dardga og'ir, sabr-bardoshli ota gospitaldan chiqib, yana frontga, urush tugagach, Vataniga qaytadi.

Bugun 97 bahorni qarshi olgan Turg'unbo'y ota nabiralar, chevaralar davrasida qalbi shukronalik, hayotga muhabbat tuyg'ulari bilan to'lib yashamoqda.

"Urushning qora va dahshatli kunlari kechagiday yodimda, — deydi ota suhbatda. — Bunday yomon kunlarni Xudo sizlarga ko'rsatmasin hech qachon".

Turg'unbo'y ota ko'nglida orzu-armonlar, achchiq xotiralar bilan yashadi. Urushdan bir ko'zi yaralanib qaytdi. Mahallasidagi O'lmasoy ismli qizga ko'ngil qo'ydi va uylandi. Birin-ketin farzandli bo'lishdi. Urush xotiralarini eslarkan, otaning ko'ziga yosh keldi. Sababi, O'lmasoy ona va Turg'unbo'y ota uchun ancha sinovli, og'ir va musibatli kunlar boshlangandi. Farzand dog'i ota-ona uchun og'ir qismat. Voyaga yetgan farzandlarining birin-ketin o'limi ularning qaddini dol qilgan. Bu musibatlarga bardosh berolmagan O'lmasoy ona olamdan erta ketdi. Turg'unbo'y ota esa yolg'izgina bir qizi bilan qoldi. Sadoqatli ota shu qizining baxt-u kamolini ko'rish uchun kecha-yu kunduz tinmay mehnat qildi. Bugun bayram arafasida yaqinlari davrasida o'tmish xotiralarini bilan nabiralarning nurlu kelajagi haqida shirin orzular qilmoqda. "Yurtimizga ko'z tegmasin, farzandlarimiz baxtli bo'lsin", — deya duo qiladi.

Ha, ibrat olsa arzigulik umri ko'rgan Turg'unbo'y ota Bo'tayev Uchko'prik tumanini Chek qishlog'ida umrguzaronlik qilmoqda. El-u yurtimizning, mahallamizning, maktabimizning faxri bo'lgan otaxondan ibrat olib yashaylik.

Rahbaroy MELIBOYEVA,  
Uchko'prik tumanidagi  
5-maktab o'qituvchisi

Millionlab askarlar-u atom, vodorod, yadro bombalari, tanklar, son-sanoqsiz harbiy qurollar.

# Men bilgan urush

“Chillak”, “Oq terag-u, ko'k terak”, “Quvlashmashoq”, “Yashinmashoq”... Bolaligimda shu kabi turli-tuman o'yinlar juda ko'p bo'lsa-da, asosiy vaqtimizni “Urush-urush” bilan o'tkazardik. Jang maydoni — duch kelgan choldevor. Qo'limizda esa yog'ochdan yasalgan, “so'nggi rusumdagi avtomatlar”. Kunbotarda qaytadigan podadan mollarini ayirib kelish bahonasida tushlikni chala-chulpa qilganacha yugurib kelgan bolalar ikki guruhga bo'linadi. Biri o'zimiznikilar, biri nemislar. O'yin qoidasiga ko'ra har bir ishtirokchi “akop”larga berkinishi, imkon bo'lganda “dushman”ning orqa tomoniga aylanib o'tib, “ataka” qilishi lozim. Agar raqib jangchisi sizga bor bo'yicha ko'rinmasa, foydasiz, “o'q”larni behuda sarflaganingiz (avtomatning ovoziga taqlidan tarillayverib, og'zingizni og'ritganingiz) qoladi. Bizning “urush” haqiqiydan ko'ra ancha beshafqat edi. Chunki bizda hech qachon yaradorlar bo'lmagan. Faqat “o'lim” bor. Tabiiyki, so'ngida qaysi guruhdan “askar”lar omon qolsa, o'sha g'alaba qozonadi.

Otalarimiz ham hali dunyoga kelmay turib bitgan dahshatli urush xotira bayrami arafasida telekanallarni butkul egallaguvchi kinolar, kattalar o'qiydigan, suratleri yo'qligi uchun bizga qiziq bo'lmagan semiz kitoblar, keksalarning butun boshli kechmishni o'zida aks ettiruvchi sirli ko'zlari... va bizning o'yinlarimizda hali-hamon yashardi.

Hozir eslasam kulgim qistaydi. g'o'r bolaligidan nafratlanib ham qo'yaman. Chunki o'sha paytlarda men intiq kutadigan ikki narsa bor edi — qor yog'ishi (qor yog'sa, maza qilib chana uchamiz) va tezroq urush boshlanishi. Xuddi kinolardagidagi “ur-ra!” deya oldi saflarda, vizillab uchayotgan o'qlar yomg'iri ostida olg'a tashlanib, mislsiz qahramonliklar ko'rsatgim kelardi. Bola edim...

Yon-atrofimizdagi uylarda, o'sik qoshlari ko'zlarini-da to'sib, biz uchun ancha qo'rqinchli tuyuladigan e-eski bobolar yashardi. Aksari so'rida ertadan kechgacha xira ko'zlari bilan atrofga termulib o'tirsa, tetikroqlari zo'rg'a eshagini minib, unda-bunda ko'zga tashlanib turardi. Bizni qo'rqitgan yana bir jihat — birining qo'li yo'q bo'lsa, biri oyoqdan judo, yana birining jag'i yasama... O'shanda men ularning orzuyimdagidagi urushda ishtirok etgani uchun shu ko'yg'a tushganini bilmas edim.

Keyinchlik o'sha “qo'rqinchli” bobolarning nabirasi bo'lgan jo'ralarim, bobosining urushga borganini aytib maqtanadigan bo'ldi. Garchi katta(katta ota — bobo)m urushga bormagan bo'lsa-da, men ham ming xil qahramonlik eposlarini ichimdan to'qib ularga jo'r bo'lardim. Haybatli tanklarni qo'lida o'yinchoqday ko'tarib otgan bobomga Jukov deganlarida havas qilishi tayin edi. Hatto sal qulog'i og'irligini ham urushdagi janglarning asoratiga yo'ydim. Faqat medallarga kelganda tilim qisq. “Qo'rqinchli” bobolarida bor, mening kattamda yo'q! Oxiri yolg'onlarim fosh bo'ldi...

— Katta, falonchi jo'ralarimning bobolari urushga borgan, hammasi maqtanib yurishibdi. Siz nega bormagansiz? Yo'qo'qqanmisiz-a?!

— Bor-e, mazgimni qotirma!

Momom — katena(katta ena)mdan-gina bu savolga batafsilroq javob olaman. Ayrishlaricha, kattam urush boshlanganda hali go'dak bo'lgan. Otasi — musulmon bobo urushga ketib, ortidan “bedarak yo'qolgan” degan bir parcha qog'oz kelgan, xolos. 50-yillarda onasi ham olamdan o'tgan.

Amakimlar shaharga ketgani bois chol-u kampirga dastyor kenja o'g'il o'zim. Dadamlarnikiga borishni uncha xushlamayman. Chunki dadam uyga keldi deguncha kitob-u gazeta o'qishga tutinadi, ayam abjag'i chiqqan kiyimlarni yamash bilan ovora. Jimjitlik. Nafasni ham bo'lib-bo'lib olasan. Bu hol har kuni davom etadi. Shu sababdan ukalarim ham kattamlarnikiga oshiqadi. Bu yerda bemalol sho'xlik qilish mumkin-da. Ustiga-ustak shirli sandiqning shirinliklari hech tugamaydi. Tag'in choy ustida Nikolay davridan tortib, gurgurtlar bir tiyin bo'lgan kommunizmning “to'kin-sochin” zamonlarigacha chiptasiz sayohat qilish mumkin.

Ana shunday suhbatlarda kattam urush davridan esida qolgan xotiralarni ham so'zlab beradi: Ochlidan kunjara yeb shishib o'lganlar, qoplab tuproq tashigan homilador ayollar, qishda yalangoyoq kezgan bolalar...

— O'sha paytlari qishloqda erkak zoti juda kam. Daladagi hamma ishlar ayollarning gardaniga tushgan. Enam meni ham dalaga olib borar, yerdagi ayollar meni ko'tarishga talashishardi. Chunki kasallig-u ocharchilikdan omon qolgan bolalar ham ozchilik edi. Ko'plari meni mahkam bag'riga bosib, to'yib-to'yib yig'lashardi...

Qora bo'yoqdagi bu tasvirlarni anglamasak-da, kattamning hikoyalari bizni ancha ma'vus torttirardi. Undan keyingi ota-onasiz sargardonliklarini ta'riflashga hozir ham yuragim betlamaydi. Birgina mening bobomni emas, bolaligi urush davrida kechgan istalgan odamning shunga uyqash hikoyasi bor. Shoir aytgani kabi:

*Kecha Yevropani yondirgan Gitler  
O'zbek tuprog'ida otmasa-da o'q.  
Qo'rg'oshindan zilroq qora xatlardan  
Bunda bag'ri butun bir xonadon yo'q.*

\*\*\*

Kollejaligimda harbiylar bilan uchrashuv bo'lgani esimda. Shunda ulardan biri “biz qonuniy qotillarmiz. Chunki bizga odam o'ldirishni o'rgatishadi”, deb hazillashgan edi. Bu hazilning istalgan haqiqatdan-da haqqoniyroq ekanini keyinchalik anglab yetdim.

Millionlab askarlar-u atom, vodorod, yadro bombalari, tanklar, son-sanoqsiz harbiy qurollar. Inson zoti nega bunchalar bir-birining qoniga tashna ekaniga hech tushunolmayman.



\*\*\*

Vatanga yov bostirib kelganida uni himoya qilish har bir insonning burchi, albatta. Ammo g'oyalar, maqsadlar naqadar jimjimador bo'lmasin, hech bir tomondan urushni oqlab bo'lmaydi.

Tasavvur qilaylik, fashist Genrix sovet askari Ivanni o'ldirdi. Uning uyiga qora xat keltirdi pochtachi. Enasi, xotini sochlarini yulib yig'ladi. “It emgan qo'ng'iz mo'ylovli Gitler”, uyung kuygur nemis... ga bisotidagi bor qarg'ishlarini yog'dirdi. Hovlida o'ynab yurgan, yig'i ovozidan uyga yugurib kelgan ikki-uch murg'ak go'dak eshikka suyanib, hayron termilib qoldi...

Ivan Genrixni o'ldirdi. Bu hikoyada ham o'sha pochtaaching nemis hamkasbi. Yana o'sha mo'ylov (Stalin) qarg'ishlarga duchor, la'nati ruslarning go'riga g'isht qalaydi, bolasidan ayrilgan sho'rlik ona-yu, sevikli yorini yo'qotgan beva kelinchak. Eshikka suyanib hayron termilib turadi, boshiga tushajak balo-lardan bexabar bolalar...

Ikkovini ham yoningizga chaqirib “Nega?” degan savolni bersangiz maktabda mushlashib qolgan bolalarday, o'zlarini oqlab, bir-birini qoralashga tushadi: “Bu birinchi mush ko'tardi”, deydi bunisi. “Falon kuni meni so'kib qochgan edi, shunga ta'zirini berib qo'ydim” — javob qaytaradi unisi.

Genrix chindan ham yomondir, ammo bu butun boshli nemis xalqi yomon degani emas-ku! Katta urushlarning asl fojiasini shunda, menimcha.

Qaysidir kitobda o'qigan edim, sovet askarlari tomonidan Berlin blokada qilinganida tinch aholiga hujum qilish taqiqlanadi. Kimda-kim bu taqiqni buza, jazosi — o'lim. Ammo askarlar Stalingraddan to Berlingacha yov bilan kurashib, necha o'limlardan omon qolgan, qahramonliklar ko'rsatgan bir safdoshini o'ldirishga majbur bo'ladi. Bunga sabab o'sha askar, harbiy qo'nalg'a yaqinidagi uyda yashovchi begunoh bir ayolni uch-to'rt bolasiga qo'shib vahshiy-larcha o'ldiradi va g'alabaga bir kun qolganda o'zi ham qatl qilinadi. Bu oilasini shu ko'yg'a solganlari uchun fashistlardan olingan bir qasos edi.

Yo bo'lmasa, urushgacha musiqachi bo'lgan bir snayper ayol, keyinchalik o'zi havas qilgan, bolaligidan kuylariga oshufta bo'lib o'sgan Betxoven, Bax, Motsart kabi musiqi daholarini butkul yomon ko'rib qolganini aytadi. Ehtimol, qaysidir adabiyotga oshufta nemis askari ham shu urush sabab Push-

kin, Tolstoy, Chexov kabi buyuklardan nafratlangandir.

\*\*\*

Kuli ko'kka sovrilgan shaharlar, konsentratsion lagerlarda tiriklayin yonayotgan odamlar, inson terisidan tikilgan noyob sumkasi-yu, qo'lqoplarini ko'z ko'z qilayotganida eti junjimgan, lekin zotdor laychasining oyog'i qayrilib qolsa, dunyo-dunyo ko'zyosh to'kuvchi kibor xotinar...

Bular biz — urushdan keyingi uchinchi avlod bolalariga ertakday tuyuladi albatta. Ammo bir tomondan ayni zamonda qog'oz parchasidan ham qadrsiz INSON deb atalmish mavjudotning savash yillarida bundan-da battarroq ahvolga tushishiga ishonsa ham bo'ladi.

Men urushni orzu qilganimda kichkina bola edim. O'lim nima-yu, urushning inson boshiga solajak savdolaridan butkul bexabar bo'lganman. Biroq uning fojialarini o'z ko'zing qontalash yaralari bitmay turib, nega buncha tez yangi urushlarning boshlanishini orzu qilganini hech tushunolmayman.

\*\*\*

DUNYONING QIZIQLIGINI QARANG, AYNI DAMDA INSONIYATNI MING BOR VAYRON QILISHGA QURBI YETADIGAN QUROLLAR ISTALGANCHA TOPIлади. AMMO BASHARIYATNING KORONAVIRUS DEB ATALMISH MITTI YO'VGA QARSHI KURASHISH UCHUN ARZIRLI QUROLI YO'Q!

\*\*\*

Bizning choldevorlarda kechgan “urushlarimiz”, hozirga kelib kompiyuterlar-u telefonlarga ko'chdi. Ehtimol, yangi asr bolalari ham men kabi tezroq urush boshlansa-yu olamshumul qahramonliklar ko'rsatsam, deya orzu qilayotgandir. Ammo ko'rgan-kechirgan hikoyalari bilan ularning orzularini “barbod” qiluvchi bobolari bormi, yo'qmi, unisini bilmayman.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali “Rossiya-Ukraina chegarasida 100 ming qo'shin va harbiy texnikalarini to'pladi”, “Shimoliy Koreya yangi ballestik raketalarini namoyish etdi”, “AQSH va Eron munosabatlari yomonlashmoqda”... kabi xabarlarini o'qirganman, ayni zamonda bolalikdagi “orzu”lariga xiyonat qilgan KATTALAR ham ko'pligi meni xavotirga soladi.

## Ehtiram

Maktabni bitirish arafasida dugonalarim bilan birga oliy o'quv yurtiga kirish istagida yonardik. Men o'shanda ToshDU(hozirgi O'zMU)ga o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladim. Adabiyotga qiziqishim sabab o'smirligimdanoq maqola va hikoyalar yozib turardim. Yozganlarim ba'zida matbuotda e'lon qilinsa, o'zimga sig' may ketardim. Rahmatli otam Mamadali Mahmudov yozuvchi bo'lgani uchun uyimizda katta kutubxona bo'lardi. Kitoblar mening yaqin sirdosh do'stlarimga aylanib qolgandi. Otam uyimizga tez-tez yangi kitoblardan olib kelardi.

## Sevgan adibimga kelin bo'ldim: Qalbi badavlat inson edi



Bir kuni qo'limga bolalar yozuvchisi, sevimli adibimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" kitobi tushib qoldi. O'shanda 7-sinf o'quvchisi edim. Kitobga shu qadar qiziqib ketganki qayta-qayta o'qishdan charchamaganman. X.To'xtaboyevning asarlariga ishtiyoqim kundan kun oshib, asarlarini topib o'qimasam bo'lmas edi! Xullas, maktabdan so'ng universitetda o'qishni davom ettirdim. Talabalik yillarimda jurnalistika fakultetida o'qiyotgan yigit bilan tanishdim. Buni qarangi, mening kelajakdagi turmush o'rtog'im sevimli yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning o'g'li bo'lib chiqdi va biz oila qurdik. Universitetning o'zbek filologiyasi fakultetini tamomlagach, ancha yil yozuvchilar uyushmasida ishladim.

Rahmatli qaynonam va qaynotam bir-birlari bilan juda inoq va mehribon bo'lishgan. Ba'zan qaynotam asarlaridagi qahramonlar tilida, qaynonamga o'zi yozgan asarlarini shunchalik mazmunli va ifodali o'qib berar, qaynonam esa jon qulog'i bilan tinglar, ba'zan hayajon bilan o'zining asargacha bo'lgan munosabati bilan o'rtoqlashar va asardagi bola qahramonning tilidan so'zlanayotgan jumalarga qo'shimchalar kiritgisi kelardi. Ayrim paytlarda asar borasidagi bahslari uzoq cho'zilib ketar, chetdan qaraganda go'yo asardagi qahramonlar bilan dardlashayotganga o'xshardi.

Qaynotam va qaynonam biz kelinlarini o'z qizlaridek juda yaxshi ko'rishardi. Qaynonamning mehrlari va qaynotamning duolarini olganman. Qaynotam har gapida "Umringiz uzoq bo'lsin, ona qizim", der edilar. Qaynonam mehmondost va dilkash ayol edi. Darvozalari doim ochiq turardi. "Onajon, darvozani yopib qo'ysak bo'lmaydimi", desak, "Yo'q, bolajonim, eshikdan farishtalar kiradi", der edilar. U kishi juda rahmdil inson edi, hattoki hashorat va jonzotlar-

ga ham ozor yetkazmagan, axir bularning hammasi tirik jon-ku, derdilar. Qaynotam har gal ishdan qaytganda, uya kelib, farzand va nabiralari bilan o'tirib suhbatlashar, suhbatdan so'ng o'zlarining eski va rangi o'ngib ketgan chopon va do'ppisini kiyib, uyning to'g'risidagi bog'ga chiqib, ishtiyoq bilan yer chopar, ekin-tekinlarga qarar, chanqab turgan ekin va mevalarni sug'oralar, ishkamlardagi uzumlarni zavq bilan xomtok qilar, qiyg'os pishgan gilos va olchalaridan idishlarga to'latib, hat-toki, yerga to'kilgan mevalarni puflapuf lab yana idishlarga joylar, farzand va nevaralarining oldiga mamnuniyat bilan, "Mana, bolajonlarim, o'zimning bog'd-a-n", deb qo'yar edi. Bir kuni men qaynonamdan "Nima uchun otam doim bog'ga chiqqanlarida, mana shu eski rangi ketgan choponi va do'ppisini kiyadilar", deb so'raganimda, "Ey qizim, bu bobolaridan qolgan yodgorlik ekan, go'yoki ulardan bobolarining hidi kelib turarmish, o'shanda otangizning ham ishlari unumli va yoqimli bo'lar emish", deb kulib javob bergandi.

Nazarimda, ular uchun insonlarning hamma xislatlari qadrlı edi. Yoshligimda Xudoyberdi To'xtaboyev deganlarida, badavlat kishini tasavvur qilganman. Keyinchalik ularning oilasiga kelin bo'lib bildimki, bu insonlar oddiy va samimiy, beg'ubor ekan. Aslida qaynota va qaynonamning qalbi badavlat ekan.

"Beshikdan to'qabgacha ilm izla" degan hadis bor. Xudoyberdi To'xtaboyev ana shu ilmni to'qab yozqasigacha izladi, tinimsiz mehnat qildi. Bu xislatlar men uchun begona emas, chunki o'z otam Mamadali Mahmudov ham tinimsiz mehnatda va izlanib yashagan. Boshqalar kabi oyoqlarini uzatib, maza qilib dam olib yotganini ko'rmaganman, chunki dam olish vaqtlarida ham, nima bilandir andamon bo'lar, u inson farzandlariga doim halollik haqida gapirar, "Halollik kuchda emas, balki haqiqatda, bolalarim", deb uqtirar edilar. Men ko'p marotaba, otajon, endi siz ham boshqalardek, dam oling, juda charchagansiz desam, "Yo'q, bolalarim, qabrga tushganimda oyoqlarimni cho'zib yotaman" deb kulib javob berardi. Doim mo'jaz ijodxonasidan chiqqisi kelmasdi.

Qaynotam bolalar va o'smirlar haqida juda noyob asarlar yaratdi. O'zbek xalqining sevimli, el ardog'idagi farzandiga aylandi. U kishidan kelajak avlodlarga durdona asarlari meros bo'lib qoldi.

Sabohat TO'XTABOYEVA,  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## Yurist-muallim xotirasi

Xalqimizning tinch-totuv yashashi, qadr-qimmatı, or-nomusini himoya qilish, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi kurashlarda bukılmas iroda va jasorat ko'rsatgan jangchilarimiz xotirasini yod etish, avlodlarning vatan oldidagi muqaddas burchidir. Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'ksini dushmanga qalqon qilgan vatandoshlarimiz haqida qancha ko'p gapirsak ham oz. Ana shunday mard, jasur vatandoshlarimizdan biri Shokir Halimovdir.

Shokir ota Shahrisabz shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. U 1934-1941-yillarda o'rta maktabda ta'lim olgan. Shu orada urush boshlandi. Shokir Halimov ham tengqurlari qatori armiyaga safarbar etiladi. U razvedkachilar maktabidagi harbiy kursni tamomlaydi va frontga yuboriladi. Fashistlarga qarshi jangda dushman mudofaa chizig'ini yorib o'tgan Shokir Halimov razvedkadan qaytishda dushman pistirmasiga tushib qoladi va og'ir yaralanib shifoxonaga yotqiziladi. 1944-yildagina Shahrisabzga qaytib keladi.

O'sha yili Shahrisabz tuman yoshlar qo'mitasida ish boshlaydi. Shu bilan birga Adliya vazirligi huzuridagi olti oylik huquqshunoslik kursida tahsil oladi. So'ngra Qarshi shahrida advokat lavozimida ishlaydi. 1948-1952-yillari Toshkent davlat yuridik institutida o'qiydi. Institutni a'lo baholarga bitirib yurist-konsultant, advokat, tergovchi vazifalarida faoliyat ko'rsatadi. 1955-yilga kelib ma-

rif sohasida: tarix va jamiyatshunoslik, huquqshunoslik fanlaridan maktabda dars beradi. 1958-yili 10-maktabda direktor vazifasida ishlaydi. Tinib-tinchimas qahramonimiz 1957-yili Samarqand davlat universitetining sirtqi bo'limiga ham o'qishga kiradi. Uni 1962-yilda tamomlab, Hamid Olimjon nomidagi 28-maktabda direktor o'rinbosari vazifasida ishlaydi.

Ko'rinishidan ancha tetik bo'lsa-da, hali-hamon urush yillaridagi jarohatlarining asorati unga azob berardi. U bir necha marta og'ir jarrohlik amaliyotini boshidan kechirdi. Lekin jarohatlar o'z kuchini ko'rsatib bo'lgan edi. Shokir Halimov 1984-yilda olamdan o'tdi, ammo u kabi vatan tinchligi uchun jonini tikkan, mard o'g'lonlar xotirasi qalbmizda abadiy yashaydi.

Sohiba OCHILOVA,  
Kitob tumanidagi  
40-maktabning ijtimoiy-madaniy  
masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

## Xotira

## Maktabimiz fidoyilari

Har yili 9-may arafasida mamlakatimizda ikkinchi jahon urushi faxriylari ziyorat qilinadi, g'alaba uchun shirin jonini fido qilganlar xotirlanadi. Men ham maktabimizda millat taqdiri uchun kurashgan, uning kamoli uchun umrini tikkan ustozlarimizni eslagim keldi.



Maktabimizda bizga yelkadosh bo'lgan fidoyi muallimlar juda ko'p edi. Shulardan biri Erkin Ahmedov. Ustoz 1956-yil 15-fevralda Toshkent tumanida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. 1973-yili tumanidagi o'rta maktabni bitirib, harbiy xizmatga chaqirildi. U yigitlik burchini Germaniyada o'tadi. 1976-1981-yillarda Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutining nemis tili fakultetida tahsil oldi. 1982-1983-yillarda Toshkent tumani hokimiyatida xizmat qilgach, 1983-yili Yunusobod tumanidagi 271-maktabga ishga keldi. Maktabda nemis tili fani o'qituvchisi, o'quv tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, di-

rektor lavozimlarida faoliyat yuritdi. Ma'lum vaqt tumanidagi 327-maktabda ham direktor bo'lib ishladi.

Keyinchalik yana maktabimizga qaytib, umrining oxirigacha biz bilan birga bo'ldi. Maktabning yangidan qurilishi, jihozlanishi va obod qilinishiga o'z hissasini qo'shgan ustozning xizmatlari e'tiborsiz qolmadi. U 1997-yili maktabning tashkil topganiga 70 yil to'lishi munosabati bilan Xalq ta'limi vazirligining "Fidoyi o'qituvchi" unvoni bilan taqdirlandi. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda katta jonbozlik ko'rsatgan kuyinchak muallim 2010-yil 20-avgustda 54 yoshida olamdan o'tdi.

Fidoyi ustozlarimizdan yana biri Erkinoy Umarova edi. Erkinoy opa 1970-yil Toshkent shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. O'rta maktabni bitirib, Chilonzor pedagogika bilim yurtida, so'ngra Nizomiy nomidagi TDP-Ida tahsil olgan. Institut-



ni 1991-yilda tamomlab Yunusobod tumanidagi 273-maktabda ish faoliyatini boshlagan.

1998-yildan buyon maktabimizda boshlang'ich sinflarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan edi. Afsuski, o'quvchilarning mehri qozongan, ularning kelajagi uchun tinib-tinchimagan muallima 2020-yil 17-yanvarda olamdan o'tdi.

Qadrlı hamkasblarimizning yodi xotiramizda abadiy yashaydi. Oxiratingiz obod bo'lsin, aziz ustozlar!

Muhabbat  
SA'DULLAYEVA,  
Zuhra TOLIPOVA,  
Yunusobod tumanidagi  
271-maktab direktorining  
ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
bo'yicha o'rinbosarlari

# Domlani professor qilgan — ayoli

“O'zim o'qigan institutda ishlayapman, ustozlarimday ilm yo'lidan ketib, yaxshi olim bo'lmoqchidim. Ammo shaxsiy hayotimdagi muammolarim bois orzularimga erisholmaymanmi, deb qo'rqaman. Turmush o'rtog'im bilan sevishib, bir-birimizni sinab, oila qurganimizga mana 7 yil bo'ldi. Ikkimiz ham oliy ma'lumotlimiz. 2 farzandimiz, ishimiz, uy-joyimiz bor, lekin halovat yo'q. Keyingi paytda ajrashsammi, deb juda ko'p o'ylayapman. Farzandlarimni ko'zim qiymaydi. Aslida, ajrashishga tuzuk bahona ham yo'q. O'y-xayollarimiz, maqsadlarimiz boshqa-boshqa. Suhbatlarimiz qiziq emas. Menimcha, bunday munosabatga chek qo'yish kerak”.

Bu yigit — hamkasbim. Yosh, bilimdon bola. Kelajakda akademik bo'lishni niyat qilgan. Bir kuni mendan maslahat so'rab, “yorilib” qoldi. Oxirgi gapim: “10 yilcha sabr qilib yashang, shunda bir-biringizni yaxshi o'rganasiz. Krisis davri o'tib ketadi!” Bu xuddi ruhsunos tavsiyasiga o'xshaydi, to'g'rimi? Ammo na iloj. Umuuman, har kim yo'lini o'zi belgilashi, qat'iy qarorni o'zi chiqarishi kerak-da!

Shu kunlarda yangi binoda kafe ochilgan haqida eshitib qoldim. Shirinliklar mavzo qilinarkan. Pishiriqlari mazdali, ularning muomala madaniyati ham juda chiroylimish. Maqtalgan joyga bir o'tishni va u yerdagilar bilan tanishishni anchadan beri rejalashtirib yurgandim. Nasib etgan kuni bordim, gaplashdim. Va u yerda bo'lgan gaplarni sizga ham ilinmoqchiman.

Ikki nafar farishtaday ona-

xon xizmatda: talabalarning ko'nglini o'lyapti. Biri — tanish professorming rafiqasi. “Sizga nima kam, domlanning topgani yetmayaptimi? Mazza qilib, degan savollarimga ajoyib, ko'pchilikka o'mak bo'ladigan javoblarni oldim: “Ota-onamizning roziligi bilan turmush qurganmiz. 4 nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazdik, oliy ma'lumotli, uyli-joyli, kasb-korli qildik. Bugun “domla” sal yo'talsa, xavotirlanaman. Kiyimi, osh-ovqati, o'y-fikrlari uchun o'zimni javobgar sezaman. Men pedagogika texnikumida o'qigandim, yoshligimda velosport bilan shug'ullanganman, chempionlik ham nasib qilgan. Ammo turmushga chiqqach, maqsadlarim o'zgarib ketdi. Farzandlarimga yaxshi qarash, ularni o'qitish va yaxshi inson qilib tarbiyalash... Siz ilm bilan jiddiy shug'ullaning, ro'zg'or va bolalar tashvishini

menga qo'yib bering, deganman xo'jayinga. Professorni yaxshi bilasiz, ko'ngilchan, samimiy va ishonuvchan odam...”

Ro'zg'orimizda yetishmovchilik bo'lmagan, deysizmi. Albatta, har bir oilada muammolar vaqt-soati bilan bo'y ko'rsatib turadi. Erkak — ko'chaning odami, yana fe'li tor va sabrsiz. Bunday paytda ayol og'irroq, sabrli bo'lib, vaziyat yanada chigallashishiga yo'l qo'ymasligi kerak!

6 yil mahallada ishladim. Mukofotlar, sovrinlar olgan paytlarim bo'ldi. Nafaqaga chiqib zerikdim. Tabiatan bir joyda harakatsiz o'tirishni tasavvur qilolmayman. Shu bois, Samarqand veterinariya meditsinasi instituti yangi binosida shu kichkina (6 yo' 7 kv metr) joyni qahvaxona sifatida ishlatyapmiz. Shirinliklar, turli pishiriqlarni arzon, talabalar hamyoni ko'taradigan narxda sotamiz. Talabalar bilan suhbatlashaman, o'y-tashvish-

larini eshitaman”. Gurunglashib o'tirarkanmiz, Samarqand veterinariya meditsinasi instituti Axborot-resurs markazi boshlig'i — Barchinoy Abduloqovga kelib qoldi va opa bilan quyuq salomlashdi. U kishi ham professorming shogirdlaridan ekan. Aytishicha, o'qishga kirishidan oldin domla unga repetitorlik ham qilgan.

“Ishonasizmi, 1994-yil — deyarli 25 yildan beri talabalar, abituriyentlar, domlanning shogirdlari muntazam kelib turishadi. Domla abituriyentlardan pul olmaydi. Shanba va yakshanba ayniqsa, xonadonimiz gavjum bo'ladi. Shunga odatlanmiz”.

Men esa shu tobda o'ylab qoldim. Ba'zilar, (jumladan, o'zim ham) dam olish kunlari xonadonimizga mehmon keladigan bo'lsa, ancha bezovtalanib qolamiz (Dam olish kunlari mehmon kutishni xushlamaslik, yomon odatligini angladim. Yana qarindoshlar aynan dam olish kunlariga turli oilaviy marosimlarni rejalashtiradi, bu ham, aslida, bizga, ya'ni “davlat ishida ishlaydiganlar”ga nisbatan hurmat ramzi ekan).

“Farzandlarimiz turli kasblarni egalladi: biri — huquqshunos, biri — vrach, yana biri tilchi. Yaxshi joylardan kelinlar oldik. Kelinlarim mendan ham ko'proq qaynotasiga mehr qo'yan, desam hayron

bo'lmang. Endi kenja o'g'limizga kelin axтарыapmiz”. Opaxon bilan ko'p mavzularda gurunglashdik. Bekorga “Erni er qiladigan xotin”, deysishmaganiga yana bir bor amin bo'ldim.

Domla kimligiga qiziqayotgandirsiz? O'zimizning Asadulla Suvonovich, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha SamVMI prorektori, veterinariya fanlari doktori, professor. Aslida, domla emas, turmush o'rtog'i — Norbuvi opa Qudratova professor ekan! Atay domlidan shu haqda so'radim, u kishi bu haqiqatligini aytdi: “Meni professor qilgan, hamma tashvishlardan ozod qilib, ilm yo'lida izlanishimga imkon yaratgan va shu darajaga ko'targan kishi — Norbuvi opangiz bo'ldi”. Mana bu mard erkakning gap! Bunga qoyil qolmasdan ilojingiz bormi?

Shirinlik bahonasidagi suhbat oilaviy munosabatlarda omadi kelmayotgan hamkasbimga to'g'ri yo'lni ko'rsatishimda namuna bo'ldi. “Qars ikki qo'ldan” deganlaridek, bunda har ikki tomonning itidishlari, harakatlari muhim. Agar ayol oilada biroz fidoyi bo'lsa, erkak kishining omadi shu! Qo'lganini asta-sekin o'zi qo'lga kiritaveradi. Aytmoqchi bo'lganim shu edi. Yana shirinlik yegim kelib qoldi. Daminovning kafesiga ketdim!

Gulchehra BERDIYOROVA,  
SamVMI Axborot xizmati

## Oramizdagi odamlar

# Maktabga bog'langan ko'ngil

Yoshlik g'ayrat-shijoati bilan to'lib-toshib ishlayotgan ayrim zamondoshlarimiz gohida toliqqan paytlari “Nasib etib pensiyaga chiqsam, bir kun ham ishlamayman, mazza qilib dam olaman”, degan fikrni xayolidan o'tkazishi mumkin. O'z kasbiga chin dildan ixlos qo'yan kishi yoshga qaramaydi, imkoni boricha oilasiga, o'zi yashayotgan jamiyatga foyda keltirishga harakat qiladi.

Omon Abdurahmonov ana shunday insonlardan. U so'lim Baxmal tumanida tug'ilib voyaga yetgan. Ota izidan borib o'qituvchilik kasbini tanlagan zamondoshimiz o'zining 47 yillik mehnat faoliyatining 25 yilini yoshlar tarbiyasiga baxsh etdi. Pensiyaga chiqqach, 2019-yildan boshlab Forish tumanidagi 71- va 72-maktablarda o'quvchilarga rus tili va adabiyotidan saboq berib kelmoqda. Ustoz yoshligidan rus tilini mukammal o'rganishga ahd qilganligi bois, maktabni bitirishga, Rossiyadagi pedagogika yo'nalishidagi oliyog'ohda o'qidi.

Institutni bitirib, maktabda ishlagan dastlabki kunlaridanoq rahbarlar nigohiga tushdi. Uni tuman xalq ta'limi bo'limiga rus tili va adabiyoti bo'yicha metodist qilib ishga olishdi. Omondagi iqtidorni sezgan rahbarlar uni tuman partiya komitetiga ishga taklif qilishdi.

Jonkuyar ustoz qayerda, qaysi kasbda faoliyat yuritmasin, maktabdan aslo uzilib qolmadi. Imkon darajasida maktabdan dars olib, o'quvchilarga saboq berishga ulgurardi. O'quvchilar bilan muloqot qilib turmagan pedagog o'zidagi tajriba va bilimni yo'qotishi mumkin ekanligini nazardan qochirmadi. Uning Forish tumaniga kelishiga sobiq kursdoshlari Oybek Erxonov, Shuhrat Jonidilov sabab bo'ldi. Chunki Forishning uzoq qishloqlaridagi maktablarda rus tili va adabiyoti o'qituvchisi yetishmas edi.

— Rus tilining asl xususiyatidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga so'zlarning ma'nosini o'zbek tilidagi tarjimasini (ekivalent) bilan qiyoslash usulidan ko'proq foydalanaman, — deydi Omon Abdurahmonov. — Bu usul o'quvchining mustaqil fikrlashiga xizmat qiladi.

Ko'p yillik pedagogik tajriba va malakaga ega Omon aka sohadagi o'zgarish

va yangiliklarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarga ega. Uning fikricha, o'qituvchi faoliyatiga u yoki bu darajada ta'sir etuvchi talablar ko'paymoqda. Bu esa unga cheklovlar keltirib chiqarishi mumkin. O'qituvchi erkin bo'lishi lozim. Muallim saboq egasi. U hamisha erkin fikrlashi, mustaqil xulosalar chiqarishi muhim.

— Otam Abdurahmon aka 16 yoshida savodsizlikni tugatish kursini bitirib, qishloqda birinchi professional pedagog sifatida faoliyat yuritgan, — deydi qahramonimiz. 30-yillarda Baxmalidagi So'fi, Qorasuv va qishloqlarda keksalar, tengdoshlar yoshlarga saboq bergan. O'zining bilimini oshirish uchun 1962-yilda 52 yoshida Samarqand davlat universitetining tarix-geografiya fakultetini sirtidan bitirgan. 50 yillik pedagogik stajga ega bo'lgan otam har doim imkon bo'lsa, kuching yetsa, o'zidagi bilimni atrofidagilarga yetkazish kerak, deb ta'kidlardi. Mening hozirgi faoliyatim otamning o'g'itlariga mos keladi. O'zimdagi hayotiy tajriba, pedagogik bilim va qarashlarimni o'quvchilarga yetkazsam deymen. Qolaversa, xorijiy til hisoblangan rus tilini o'rganishga ham talab va ehtiyoj katta.

Ozizgi shundaki, Omon aka bundan 2 yil oldin o'z qishlog'idan 200 kilometr

uzoqlikdagi tumanga borib ishlashni ixtiyor etdi. Uzoqda ishlashning o'ziga xos qiyinchiliklari bor, turarjoy, yo'l xarajatlari. Shularni o'ylaganda ustoz o'qituvchilarga qo'shimcha haq talab qilishni istihola va andisha qilardi. Muhtaram yurtboshimiz mana shunday ustozlarning mehnatini qadrladi. Prezident ko'rsatmasiga binoan boshqa tumanga borib ishlayotgan o'qituvchilarning ish haqiga 50 foiz, boshqa viloyatda ishlasa 100 foiz ustama haq belgilandi.

Omon Abdurahmonovning oilasi o'qituvchilar sulolasi. Uning farzandlari ham ota izidan borishmoqda. Qizi Salтанat biologiya, Ma'rifat ingliz tili fani o'quvchisi. Yana bir qizi Xosiyat, o'g'illari Yo'ldoshbek va Azizbek OTMda ta'lim olishmoqda.

Qariyb yarim asrlik umrini maktabga baxsh etgan, ko'nglini esa yoshlar bilan chambarchas bog'liq ushuz nafaga yoshida bo'lishiga qaramay, oilasi davrasida keksalik farog'atini surish, tengdoshlar gurunglaridan ko'ra maktabda bo'lishni afzal biladi. Baxmalidan Forishga borib o'quvchilarga dars o'tayotgan muallimning mehnat faoliyati kasbdoshlari uchun ham, yosh pedagoglar uchun ham hayot maktabi vazifasini o'taydi.

Omon Abdurahmonov kabi fidoyi insonlar haqida mashhur yozuvchi Anton Chexov shunday degan: “Fidokor kishilar quyoshdek zarur, ular jamiyatning eng shoirona hayotbaxsh element bo'lib, boshqalarga hayajon, taskin beradi va yoshartiradi”.

Abdusattor SODIQOV

## Xotira

# “Biz albatta qaytamiz...”

## (Voqea Qodir boboning o'g'li Odamboy Qodirov tilidan yozib olingan)

Ukam bilan temirchilik qilib, xalqning ro'zg'origa kerakli anjomlar va qishloq xo'jaligi uskunalarini yasardik. 2-jahon urushi boshlanganida meni shu yerda qolib, front ortida xalqqa kerakli bo'lgan buyumlar yasash ishlariga jalb qilishdi, ammo endigina 19 yoshni qarshi olgan ukam Aminboyini urushga olib ketishdi.

1941-yil sentabr oyining boshlari edi. Uy oldida bir guruh harbiylar qishlog'imizdan 50 nafar yigitni olib ketishga kelishdi. Kuzatish uchun mahalla, qo'ni-qo'shni, yoshu-qari yig'ilgan. Onam dag'dag' qaltiraganicha hech narsa deymas, bitta nonni tishlattdi-da, ukamni quchoqlab yig'layverar edi. Kuzatish oldida dadam sekin ukamni yoniga borib bag'riga bosdi va peshonasidan o'pib: “Aminboy o'g'lim, biz senga ishonamiz va sen bilan doim faxrlanamiz. Tez orada g'alaba bilan qaytasizlar, shunda akang Odamboy bilan ikkalangizning to'ylarini qo'shib qilamiz. Unutma, o'g'lim — Vatan sha'ni doim oringdan ulug' bo'lsin! Oq yo'l, oy borib, omon qaytinglar”, deb xayrlashdi. Ukam esa iliq tabassum-la hammamiz bilan quchoqlashar ekan, faqat bitta so'zni takrorlayverdi: “Xayr, yaxshi qolinglar, biz albatta qaytamiz”...

Dastlab, har 2-3 oyda o'zi va qishloqdan birga ketgan safdoshlari haqida, qayerda xizmat qilayotgani haqida xatlar kelib turardi. Xat kelgan kun uйда bayram boshlanar, hammamiz uni qayta-qayta o'qirdik. Onam xatni yostig'i ostiga qo'yib uxlardi. Xatning kelish vaqti cho'zilsa, onam darrov o'g'limdan xat kelmadimikan, deb necha bor xat tashuvchining uyiga borardi.

Shu zaylda uch yil o'tdi. Keyinchalik uyga xat kelmay qo'ydi... 1943-yili — urushning suronli yillari, izg'irinli kun-

larning birida ustaxonada ketmon yasayotgan edim. Otam yonimga kelib o'tirdi va qilayotgan ishlarimni zimdan kuzatdi. Men hassaga suyanib o'yg'a cho'mgan otamning gapirmasada dilida nimalar kechayotganini tushunardim. Chunki qariyb 6 oydan buyon ukamdan xat kelmas edi. Qishlog'imizdan birga ketgan ayrim yigitlarning mash'um o'limi haqida “qora xat” kelar va Vatan uchun jon bergan yigit sha'ni uchun butun qishlog'imiz aza ochar edi...

Shu o'y-xayollar bilan ishinni qilayotgandim, kimdir eshikni ohista taqillatdi va sekin ochdi. Xat tashuvchi... Otam u kishi bilan salomlasharkan, qo'liga xatni oldi va majolsizgina joyiga o'tirib: “Buni ertaroq sezgandum, o'g'lim, oxirating obod bo'lsin, Oллоhu akbar” deb fотиha tortdi....

Bu sovuq xabar, ayniqsa, onam uchun judayam og'ir zarba bo'ldi. Deyarli har kuni: “hech bo'lmasa mурdasini ko'rsam edi, yo qabrini ziyorat qilsam edi”, deb ko'zlarini yoshlanardi. Otamning ham qaddi bukilib, to'shakka “mixlanib” qoldi.

1944-yilning erta bahor kunlarining biri, dalada ketmon chopib yurgan edim, uzoqdan odamlarning Seyitmambet qaytdi degan ovozlari eshitildi va qo'limdagi ketmonni tashladim uyimiz ro'parasidagi Seyitmambetning hovlisiga qarab yugurdim.

Chunki Seyitmambet ukam bilan bir-

ga ketgan, bitta frontda, bitta joyda xizmat qilayotgan edi. O'zimda zo'rg'a kuch topib: “Seyitmambet, yoningda birga ketgan ukam, Aminboy taqdiri qanday bo'ldi?”, deb so'radim.

— Odamboy do'stim, bandachilik ekan, Oллоhning irodasi ekan, — dedi-da, hikoyasini boshladi. — Dastlab, bizni Moskvaga yaqin joyga olib borishdi va o'sha yerda tank haydash, tank batalyonini boshqarish, turli pozitsiyalarda tank orqali hujumga o'tish mashg'ulotlari bo'yicha o'qitishdi. Ichimizda Aminboy qisqa fursat ichida imtihonlarni a'lo baholarga topshirdi, keyinchalik u rotamizdagi eng kuchli “tankchi” unvoniniyam qo'liga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Urush o'chog'iga kirgach olti oydan keyin Aminboy “7-zona tank batalyoni komandiri” lavozimiga ko'tarildi. Aminboyning o'tkir zehni, favqulodda qarorlar qabul qilish qobiliyati va mukammal urush taktikasini bilganligi bois, bir necha bor nemislarning katta harbiy bazalariga qashqatqich zarbalar berdik.

Ana shunday ayovsiz urush kunlarining birida tank boshqarib borayotgan Aminboy hamqishloq safdoshlarining jang maydonida o'q jarohatidan jon talvasasida yotganligini ko'radi. Nemislar tomonidan biz tomonga yomg'irday yog'ilyotgan o'q va bomba kuchlariga qaramasdan, Aminboy darrov tankdan tushib, ikki nafarini ko'tarib panaroq joyga o'tayotgan paytda uning chap buyragiga o'q kelib tegdi.

Men esa uzoqdan Aminboyning behol yiqilganini ko'rdim, lekin shu payt bir oyog'imdan o'q yeganim va har ikki tomondan yomg'irday yog'ilyotgan o'qlar sababli uning yoniga borishning imkoni

bo'lmadi, kech tushishini kutib yotdim. Kechda darhol Aminboy yotgan joyga sudrala-sudrala yetib bordim. Borsam Aminboy tirik ekan, lekin juda ko'p qon yo'qotgan, peshonasidan ter quyay, har zamonda ingragan ovozi chiqar edi.

Bir payt qararasam, uzoqdan qo'llarida fonar, bahaybat itlari bilan 30-40 chog'li nemis askarlari saf tortib kelishar, oldida uchragan har qanday ahvoldagi askarni — yaradormi, o'likmi birma-bir tepib, o'tkir tig'li burovni ko'kragiga tiqib olishardi. Men bu holatni ko'rib, shosha-pisha shu yerda yotgan o'liklarni Aminboy ikkimizning ustimizga tort-ta boshladim. Aminboyga: “ovozingni chiqarma, o'zimiznikilar bizni albatta olib ketishadi”, deb shivirladim. Bu orada nemis askarlari tepamizga kelib qolishdi va mening ustimdagi o'likni bir tepdida, o'tkir tig'li xanjarni tiqdi. Aminboy tomonga o'tib, uning ustidagi o'likni ham tepishgandi, tepilgan zarb Aminboyning jarohatiga tegdi. U og'riq zo'ridan ingrab yubordi va ...

Shukronalar bo'lsinkim, Istiqlol tufayli, ayniqsa, keyingi yillarda Vatanimizning o'tmish tarixi ilmga asoslangan haqqoniy fakt va dallalar bilan qayta yoritilib boshlandi. Har safar Nukus shahrining markazidagi hamda Toshkent shahridagi “Xotira maydoni”ga borib, ajdodlarimizni ziyorat qilganimda, shu yerda Vatan uchun, shu el uchun jon bergan bobomning ham nomi zarhal harflar bilan yozilib turganligi — ko'nglimga doim faxr va iftixor tuyg'usini baxshida etadi.

Quvondiq QODIROV,  
Ajiniyoz nomidagi  
Nukus DPI Yoshlar bilan ishlash  
bo'yicha prorektori

# E'zoz — qadrning “egizi”

Yaxshilik va yomonlikni, tarix bilan bugunni qiyoslash natijasida shukronalik, hayotdan rozilik hissi shakllanadi. Har qanday jamiyat taraqqiyoti shu yurtda yashayotgan xalqlarning mental xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Chunki milliylik madaniyatning o'q ildizi, uni oziqlantiruvchi manbadir.

Milliy madaniyat esa muayyan diniy dunyoqarashga suyanadi. Bu kashfiyot emas, balki jahon xalqlari taraqqiyoti tajribasidan kelib chiqqan muqarrar saboq, tahliliy xulosa. Demak, milliylik qadriyatlar bilan uyg'un holdagina butunlik kasb etib, yaxlit madaniyatni hosil qiladi. Shunday ekan, o'tmish voqealaridan saboq chiqarish har birimizning xalq va yurt oldidagi burchimizdir.

Dunyoning turli chekkalari, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida sodir bo'layotgan mojaroli voqealarga befarq bo'lmaslik, ularning yurtimizga kirib kel-

masligini ta'minlash, buning uchun bor kuch-g'ayratni aya-maslik lozim. Mana shu — ogohlik. Mana shu — daxldorlik, aslida.

Zero, Ikkinchi jahon urushi dahshatlari hali-hanuz unut bo'lgani yo'q. Ular hozirda hayot bo'lgan faxriylarning tilida, mungli ko'zlarida, tanasidagi chandiqlarda yashamoqda.

Qariyb yarim million yurt-doshimiz shu urushda halok bo'lgani, qancha-qanchasi nogiron, mayib-majruh holda qaytgani, ko'plab ayollar beva, bolalar yetim qolganini har qaysi oila mudom yodida

saqlaydi. Shunday ekan, urush maydonlarida osmonimiz musaffoligi uchun jon bergan vatandoshlarimiz xotirasi oldida bosh egishga burchlimiz. Mana shu — qadr.

Qadr bilan “egiz” tushuncha bor — bu e'zoz. E'zoz deganda hozirda qarilik gashtini surib, nasihatgo'y bo'lib yurgan onaxon-u otaxonlarimiz umrini uzaytirish uchun jidd-u jahd ko'rsatish tushuniladi, chamamda.

Kezi kelganda aytish kerakki, keksalarni e'zozlash, aslida, yoshlarning 40-50 yil keyini haqida qayg'urish hamdir. Chunki keksayganda qadr topishni istagan har bir odam yoshi ulug'larni bugun e'zozlashi lozim. Zero, umr shiddat bilan o'tib bormoqda.

Hikmatlarda kelganidek, “ariqning yoniga o'tir-u, umrning o'tishini ko'r!” Bundan keksa yoshli insonlarga ko'rsatilayotgan bugungi e'tibor ko'z

ochib yumguncha o'zimizga qaytishi anglashiladi.

O'zbek — boy ma'naviyat va tarixga ega xalq. O'zbek millatida shunday udumlar borki, ular yer yuzining boshqa burchaklarida uchramaydi: ota o'tirgan davraga o'g'il daf'atan qo'shilmaydi, otaga tik qarab gapirilmaydi. Taom tanovul qilishda ota-ona kelmaguncha hech kim ovqatga qo'l uzatmaydi. Har qanday qiyin, murakkab ishlar oldidan keksalarning maslahatlarini tinglab, ulardan fотиha olinadi. Qarindosh-urug'lar, yor-u birodarlar kuchi bilan hasharlar qilinadi, tansiq taomlar pishirilganda qo'shnilariga ulashiladi. Ertalab farzandlar, birinchi galda, ota-onalaridan xabar oladi. Ertatongda ko'cha eshiklari ochilib, hovli va darvoza atroflari supirib-sidiriladi. Ko'cha-ko'ya yoshi ulug'larning oldidan ke-sib o'tilmaydi, salomlashish kanda qilinmaydi. Bemor va

qariyalarni ziyorat qilish — do-imo odat.

Har birimiz ona suti, ona allasining ahamiyatini yaxshi tushunib yetsak, ota bolalariga o'zining barcha xatti-harakatlari bilan o'rnak bo'lsa, ularga savob, gunoh, uvul, qarq'ish tushunchalarini ajdodlarimizning o'gitlari misolida tushuntirib borsa, ularni mehnatga o'rgatsa, onalar qizlarini uyda tozalikka, orastalikka rioya qilishga, uy yumushlarini beka-u ko'st bajarishga o'rgatsa, mustaqil hayotga tayyorlansa, ustozlar yosh avlodni Vatanga muhabbat, yurt qahramonlariga ibrat ruhida tarbiyalasa, o'qitsa, bir so'z bilan aytganda, daxldor, mas'ul bo'lsa, hamisha ravshanlik, musaffollik, bir-birlariga mehribonlik, xotirjamlik hukm suradi.

Bu muhitda tarbiya ko'rgan bolalar hamma joyda shunday ish tutishiga odatlanadi — barkamol bo'ladi. Tinchlik qaror topadi — urushlar tarixga muhrlanib, unutiladi.

Gulchehra MO'YDINOVA,  
Yunusobod tumanidagi  
58-maktabning boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi

Zamonamiz qahramoni

# Rahbar jonkuyar bo'lsa, yutuqlar ummonga aylanadi

"Ey o'g'il, qaysi fan bo'lmasin, uni mukammal egallamaguncha harakatni to'xtatma, bir ilm ikkinchi ilmni egallashga yordam beradi". Sheroziyning ushbu o'g'iti 38 yillik pedagog Gulnora Jumaniyozovaning ish stolida turadi. Ustoz Navoiy shahridagi 11-maktabga rahbar bo'lib kelganida jamoadagi o'qituvchilarda tushkun kayfiyat borligini sezgan. Bundan tashqari, ko'plab o'qituvchilar darslikdan tashqari badiiy adabiyot o'qishni deyarli to'xtatib qo'ygani ma'lum bo'lgan.

— O'qituvchini ruhlandırishning yo'li ularni chinakamiga kitobga oshno qilish, — deydi Gulnora Jumaniyozova. — Qo'shimcha kitob o'qib, ma'naviy olami boyigach, ular menga rahmat aytishdi. Pedagogik kengashda har hafta darslikdan tashqari ikkita roman, uchta qissa yoki hikoyalar to'plamini o'qib, ma'no-mazmunini yozib kelish topshirig'ini berdim. Darsdan so'ng o'qituvchilar bitta sinfxonaga o'qigan kitobi bilan kirib, imtihonimdan o'ta boshladi. Shundan so'ng maktabimizda yangi hayot boshlandi. Hamma yeng shimarib o'qishga kirishdi. Bora-bora har birining uyida shaxsiy kutubxona paydo bo'ldi. Endi o'qituvchilar bir-biri bilan kitob almashadigan, yangi kitoblarni kutubxonachimizga buyurtma beradigan bo'lishdi. Kitob o'qigan ustoz dunyoqarashi, ruhiyatida ko'tarinkilik yaqqol sezilib turadi. Maktabimizda yil boshida hamma o'z ixtiyori bilan gazeta, jurnallarga obuna bo'ldi. Maktabga keladigan bosma nashrlar uyga berilmaydi. O'z uyingga ma'naviyat nuri kelib turganiga ne yetsin. Menga natija kerak. Natija esa oraliq sinovlarda, fan olimpiadalari, bilimlar bellashuvida, respublika miqyosidagi tanlovlarda, bitiruvchilarning oliy o'quv yurtiga kirishida bilindi.

Qat'iyatlik qon-qoniga singgan ustoz 2005-yili o'quvchilarning eng saralarini tanlab, ularga chuqurlashtirilgan bilim berish bobida o'ziga xos "Maktab ichra maktab" tajriba maktabini yo'lga qo'ydi. Yildan yilga 11-maktab yutuqlari ko'payib bordi. 2011–2020-yillarda mamlakatimizdagi 9695 ta maktablar orasida kompleks reyting ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori o'rinni egalladi. Maktab 2014-yilda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Eng obod ta'lim muassasam" hamda "Yilning eng yaxshi veb-sayti" ko'rik-tanlovlari respublika bosqichi g'olibi bo'ldi.

Bugungi kunda maktabdagi 195 o'qituvchidan 35 nafari oliy, 50 nafari birinchi, 54 nafari ikkinchi toifali pedagog. Fan-texnika yutuqlarini pedagogik faoliyatga tatbiq etib, kasbiy jarayonga ijodiy yondashuvda talabchanlik o'z mevasini berdi. 2015–2017-yillarda Xalq ta'limi vazirligi va Buyuk Britaniya konsulligi hamkorligida tashkil etilgan "Yilning eng yaxshi ingliz tili o'qituvchisi" ko'rik-tanlovi g'olibi Vazira Azimova, Ahad Ahmedov, Dilbar Jumayeva kabi o'qituvchilar Buyuk Britaniyaning nufuzli oliy o'quv yurtida malaka oshirib kelishdi. Eng qovonchilisi, texnologiya fani o'qituvchisi Murodbek Turniyozov "Mehnat shuhrati" ordeni bilan, geografiya o'qituvchisi Rustam Abdiyev, yoshlar yetakchisi Muhayyo Mamurodova, direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Zebo Botayeva ketma-ket davlatimizning yuksak mukofoti "Shuhrat" medali bilan taqdirlanishdi.



Shogirdlari: Foziljon Bo'riyev — 8-maktab direktori, Shalolaxon Hamidova — Navoiy shahar hokimi o'rinbosari.

57 nafar o'qituvchi esa "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni sohibi.

Ha, rahbar qattiqqo'llik bilan ish olib borishi, ko'pchilikni ortidan engashtirishi, odamlarda ertangi kunga ishonch uyg'ota olishi zarur. Ayniqsa, pedagogik jamoaga rahbarlik qilish — g'oyat nozik va sharafli vazifa.

Gulnora Jumaniyozovaning maktabida o'qituvchilarning deyarli barchasi ijodkor. Iste'dodning qirrasini bittagina bo'lmaydi. U she'r va ashula aytib bilishi, raqsga tushishi, biror musiqa asbobini chala olishi, rasm chizishi yoki sportning biror turini egallagan bo'lishi kerak.

2018-yilda maktabning iste'dodli o'quvchilaridan "Iqtidorli o'quvchilar innovatsion olimpiadasi"ning respublika bosqichida 6 nafar o'quvchi 1-o'rinni egalladi. 9-sinf o'quvchisi Davron Ro'zimurodov an'anaviy karatedo sport turi bo'yicha Osiyo chempionatida 1-o'rinni egallagan bo'lsa, 10-sinf o'quvchisi Charos Soybova "Korrupsiyaga qarshi kurashimiz" insholar tanlovining respublika bosqichi g'olibi bo'ldi. Bu yutuqlar tagida juda katta pedagogik mas'uliyat yotibdi.

2019-yilda 11-sinf bitiruvchilarining 107 nafari respublika va xorijiy oliy o'quv yurtlariga o'qishga qabul qilinib, rekord natijani qo'lga kiritdi. Jumaniyozovaning o'quvchilari xalqaro bilim bellashuvlarida ham O'zbekiston sharafigini munosib himoya qilmoqda. 9-sinf o'quvchisi R.Rashidov Nijniy Novgorodda o'tkazilgan "Robofest — 2020" xalqaro IT va DIV olimpiadasida muhandislik toifasida 70 dan ortiq davlatdan kelgan o'quvchilar bilim bellashuvida 3-o'rinni qo'lga kiritdi. 9-sinf o'quvchisi Abduqodir Ismoilov hamda 11-sinf o'quvchisi Iroda Narziyeva Kaliningrad shahrida o'tkazilgan GS GROUP deb nomlangan VI xalqaro matematika olimpiadasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Maktab jamoasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil etilgan "5 tashabbus amalda" ko'rik-tanlovida 2 ta yo'nalish bo'yicha 1-o'rinni, 3 ta yo'nalish bo'yicha 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

2-sinf o'quvchisi Ulug'bek Anvarov Turkiyada o'tgan 10 ta davlatdan 500 nafar o'quvchi ishtirokida 8 yoshlilar orasida mental arifmetika bo'yicha ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egallagan bo'lsa, Anqarada 24 kuz vaqtlari o'rtasida erkin kurash xalqaro

Joriy yilda "Eng kitobxon maktab" respublika tanlovida 11-maktab g'olib bo'lib, "Spark" avtomashinasini qo'lga kiritdi. 11-sinf o'quvchisi Yorqinbek Turdiboyev AKFA universiteti tomonidan tashkil etilgan 3 bosqichli olimpiadada ishtirok etib, biologiyadan 1-o'rinni egallab, 25 million, ingliz tilidan 5-o'rinni egallab, 15 million, matematika bo'yicha 6-o'rinni egallab, 9 million so'm mukofot bilan taqdirlandi. Mukofotlarning umumiy miqdori 49 million so'mga teng. Shuningdek, Yorqinbek shu universitetning tibbiyot fakultetida kontrakt asosida o'qish huquqini qo'lga kiritdi. Shartnoma asosida ta'lim olishning 58 million so'mga tengligini va shundan 49 millionini chegirib qolinishi ham uning oilasi uchun katta yutuq. Shu kunga qadar Yorqinbek yer sharining 2 ta nufuzli universiteti talabasi bo'lib ulgurdi. Bundan oldin ham u AQSHning IOWA universiteti biologiya-medsina yo'nalishi grant sohibi edi. Yana 10 nafar o'quvchi hali maktab partalaridayoq talaba nomini oldi. Maktab jamoasi 3-4 kun ichida yana 13 nafar o'quvchining ham talaba bo'lganligini tasdiqlovchi qarorini kutmoqda.

Rahbarimizning maqsadi oliy: Uchinchi renessans egalari — o'zbekning iste'dodli farzandlari aql-idroki ila olamni zabt etish. 2020-yilda Gulnora Jumaniyozova boshchiligidagi 320 o'rinni Beruniy nomidagi davlat-xususiy sherikchilik maktabi tashkil etilib, 50 ta yangi ish o'rini yaratildi hamda iqtidorli o'quvchilar qamrab olindi.

Umri ma'rifat yo'lga baxsh etgan ustoz 2017-yili "Yil ayoli" milliy tanlovining respublika bosqichida "Eng kuchli ma'naviyat va ma'rifiy ishlar targ'ibotchisi" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, "Sog'lom turmush" medali, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni sohibasi, Respublika ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari Direktorlar kengashi raisi Gulnora Jumaniyozovani g'unchalari o'zidan ko'p atirgullar yulzoriga, qilgan mehnati natijasini o'n yillab ishonch bilan kuta oladigan sabr qal'asiga o'xshataman. "Maxzan al-ulum" kitobida qanoatli kishini — saodat egasi, deya ta'rif beriladi. Aynan Gulnora opadek saodat egalari ko'payaversin. Ming turli chalg'ituvchi qutqulardan yoshlarni asrab, ma'nan sog'lom, vatanparvar, toza ijmon-u'e'tiqodli qilib tarbiyalayotgan ustozlar, shubhasiz, zamonamiz qahramonlaridir. Ular inson qiyofasidagi qashqirlar galasidan odamiylik, or-nomus, insof-u diyonat, mehr-u shafqat kabi muqaddas tuyg'ularini asrab qolayotgan ma'rifatimiz sarvarlari.

*Bahori kuzidan ko'p,  
Savobi izidan ko'p,  
G'unchasi o'zidan ko'p,  
Muallim deganimda  
Bo'ston kelar yodimga.  
Jonda, yurak ichinda,  
Duo — tilak ichinda,  
O'rni yurak ichinda,  
Muallim deganimda  
Vatan kelar yodimga.*

Zulfiya MO'MINOVA,  
shoira,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi

# Chin do'stga maktub

Quddus, jo'ra. Hozir yarim tun. Uxlolmayapman, uyqu qurg'ur qochib ketgan – na shamoli bor, na soyasi. Umr degani yetmishni qoralab borayotganini eslab, Sizni bilmadim-u, ammo men, rostini aytaman, suyunishniyam, kuyunishniyam bilolmay lol-u karaxt bo'lib o'tiribman. Bir g'arib ahvoldaman. Derazadan osmonga qarab, osmonda jimillab turgan yulduzlarga qarab seskanib, hayajonlanib, tashvishlanib ketyapman – ichimda nimalardir chirt-chirt uzilib ketyapti, yig'lagim kelyapti. Ko'ngilni ko'taradigan, taskin beradigan bir sehrlidoga ilhaqdayman. Qaniydi, hozir yonimda bo'lsangiz-u, Siz bilan qavatma-qavat yurib o'tgan yo'llarimizni eslasak, ko'rgan-kechirganlarimizni to'kib-solib gurunglashsak, davramizni bevaqt tark etgan birodarlarimizni xotirlab, o'tayotgan, kelayotgan kunlar haqida muhozalar qilsak...

Jo'rajon, Siz, Iskandar, Rahimberdi, Jumavoy (joylari jannatdan bo'lsin uchovlarining ham), Abdunazar, O'tkir – hammamiz bolalikdan bo'yinsa-do'st bo'lib o'sdik. Bir qishloqda yashadik. Birga “Chillik”, “Yashinma-qoch”, “Suyak otar”, “Quloq cho'zma”, “Eshak mindi” o'ynadik. Bir sinfda o'qib, bir vaqtda yetuklik guvohnomasini oldik. Maktabni bitirgach, ikkovimiz bitta poyezdning bitta vagonida Samarqanddan Xovosgacha – o'tirishga joy yo'q – tik turib, Toshkentga yetib keldik. Bitta institutga kirib, (Siz – rasm-chizmachilik, men – til va adabiyot fakultetida) o'qidik; bitta kvartirada ijarada turdik. Oliy ta'lim shahodatnomasi qo'lga tekkanidan keyin, Siz – muallim bo'laman, deb Urgutga yo'l soldingiz, qishlog'imizga borib, o'zimiz tahsil olgan maktabda muallimlik qila boshladingiz. Men – yozuvchi bo'laman, deb Toshkentda qoldim. Siz maktabda uzoq ishladingiz. Izlanuvchan, kuyunchak, yangilikni ko'rganda o'zini tomdan tashlovchi g'ayratli yoshlar hamisha, hamma yerda e'zozlangan va e'zozlanadi. Sizniyam ikki yilga yetar-yetmas, tuman xalq ta'limi bo'limiga olib ketishdi. Avval uslubchi, keyin katta, undan keyin bosh uslubchi vazifalarida ish o'rganib, tajriba orttirdingiz. Shundan so'ng Sizni salohiyatli yirik jamoa – o'zbek-turk litseyi direktori lavoziga tayinlashdi. Bu jamoada qanday ishlab, ko'pchilikning hurmat-e'tiboriga qanday erishganingizni, barcha do'stlaringiz qatori men ham ko'rib, kuzatib, havas qilib turdim. Xushomad qilaypti, deya iljaymang-u, ammo tuman xalq ta'limi bo'limiga mudir bo'lganingizdan keyin, ochildingiz, jo'ra, ochilib ketdingiz... Rosti, ichimga bir shubha oralagan edi mudirlik maqomiga ega bo'lgan dastlabki paytlaringizda. Axir, Urgut kichkina makonmi? Butun boshli Sirdaryo viloyatiga teng maktablari, o'quvchilari bor edi-da o'sha vaqtda Urgutning. Shunday salmoqli yumushni bajarish, ishonchni oqlash... Sinfimizdan bittagina kattakon rahbar chiqdi, ishqilib uyalib qolmay-

o'zi qilib, aybni ustoziga ortib qo'yadigan betuturiq, g'alamislar bo'lishi ham bor gap, orqavorotdan sha'ningizga qora surkamoqchi bo'lganlar va bilib-bilmay ularga qo'shilib malomat toshlarini otganlar ham bo'ldi. Undaylarniyam raqib deya ko'krigidan itarmadingiz, men sendan zo'rman qabilida yoqalashib, qadslashib yurmadingiz. Hosil ko'pligidan daraxt shoxi egiladi, mard kishi ko'p vaqt azob-uqubatga duchor bo'ladi, deyishadi hindlar. Siz azoblangan paytlaringizda ham esankirab, jahl yoki tushkunlikka erk bermadingiz. Aksincha, shinni qayerda bo'lsa, pashsha ham o'sha yerda, deya muloyib kulib, boshini siladingiz, aydingiz, achindingiz, to'g'ri maslahatlar berdingiz, sokin karvon – toqqa sarbon maqoliga amal qildingiz. O'z joyida tutun ham shirin bo'ldi Siz uchun. Qolaversa, piyoz to'g'raganning ko'zi achiydi-da, to'g'rimi? Tumanda necha maktabu bog'cha bo'lsa, hammasiga birma-bir bordingiz, ahvolni, vaziyatni ko'rdingiz, o'rgandingiz, tahlil qildingiz. Tomlari yomg'ir-u qorda teshilaverib g'alvir bo'lib ketgan maktablarni ko'rganda, zax sinfxonalari diydirab o'tirgan



bolalarning mung'aygan ko'zlariga duch kelganda qanchalar ezilganingizni, ularga yordam berish uchun esa qo'lingiz kaltaligidan naqadar o'kinganlaringizni ko'rmasidan bilganman — his qilganman, alam qilgan Sizga qo'shilib menga ham. Ammo umidsizlanmay, qarab, tomosha qilib turmaganingizdan ham xabardorman. Bitta sinfni ta'mirlash, bitta shifer undirish uchun qirg bo'lsa — qirg, ellik bo'lsa — ellik eshikka borganingiz, soatlab sarg'ayib turganingiz, yalanganingiz, talashib-tortishganlaringiz haqida ko'p eshitganman, haligacha gapirishida o'sha paytlarda Siz bilan birga ishlagan hamkasbringiz — maktab direktorlari, muallimlar, qishloq kayvonilari. Haligacha maktablar tugul, tumanning qaysi qishlog'iga, qaysi guzariga borsangiz, poyandozlar to'shaydilar yo'llaringizga.



Quddus, Quddusxon aka, Eshon bobo, deb izzat-hurmat ko'rsatadilar, e'zozlaydilar. To'y-ma'rakalarda davralarning to'riga o'tkazadilar, do'ppi-chopon kiygizadilar. Eshingizda har kuni o'nlab “Taklifnoma”lar, maslahat-kengashga kelgan hamyurtlaringiz... Yaqinda yana bir e'tirofdan boshim ko'klarga yetdi. Tuman-dagilar uch kishini Urgut oqsoqollarining karvonboshilari, deya alohida mehri bilan hurmat qilishar ekan. Shularning biri — butun umrini xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini asrashga bag'ishlagan iste'fodagi polkovnik O'tkir To'layev, ikkinchisi tuman sog'liqni saqlash bo'limining sobiq rahbari, mehrl shifokor Farmon Azizov va uchinchisi — Siz ekansiz, jo'rayi muhtaram, Siz! Kam-u ko'pi bilan olti yuz mingga yaqin aholi nafas olib turgan manzilda bunday ehtiromga sazovor bo'lish qanchalar yoqimli. Munavvar izzatlar bardavom bo'lsin, jo'rajonim. Ruslarda shunday ibora bor ekan: “Ishchan odamning qo'li tinmaydi, dangasaning tili”. Bu hikmatni salgina o'zgartirib, Sizning faoliyatingizga moslashtirib, jo'ra, Sizning qo'lingiz ham, tilingiz ham tinmadi — tinmay ishladingiz va ishlayotirish, degim keladi. Esingizdami, bundan roppa-rosa o'n yil muqaddam, 2011-yilning may oyida, 60 yoshga to'lgan kunlaringizda, Siz haqingizda “Chin do'st” degan maqola yozgan edim. Vaqtning tezob-u bevafoiligiga qarang, ana-mana deguncha oradan yana o'n yil o'tib ketibdi. Kechagi “Oltmishvoy”lar – bugun “yetmishvoy!” Bu dunyo kunlarining qushday uchib o'tishi-yu, u dunyo kunlarining selday shitob bilan kelishiga nima deyish mumkin?! Ishonging kelmaydi, hatto: kechagi bola, kechagi talaba, kechagi yosh muallim ko'z ochib yumguncha bo'lmay, umr pillapoyalarining yetmishinchi zinasida taltayib o'tirsa! Yana qancha yashaymiz? Ertaga nima bo'ladi? O'tayotgan bugungi tunimiz ertangi kunimizga ulanib ketarmikan? Yoki qumloqqa toman tomchiday singib, yoxud shamol uzgan yaproqday chirpirak uchib, yoki ipi uzilgan varrakday shox tashlab... Yaratganing O'zi asasin-u, ammo yosh ulg'ayavergach, bundayin mushohadalarga borish unchalarnobitay bo'lmay qolar ekan odamzod bolalariga. Yetmish, yetmishdan keyin

ring chaman, yo'llaring ravon va charag'on ekan sokin tunlaring. Quddus jo'ra, Sizga shularni yozyapman-u, ammo nega bunday qilayotganimni o'zim ham oxirigacha tushunganim yo'q. Illo, xat yozishlar allaqachon “moda”dan chiqib ketgan, gugurt qutisiday telefonginada aft-u angoringni ko'rib, betma-bet suhbatlashish mumkin bo'lgan zamonda mening bu qilg'im kulgili tuyulishi ham mumkindir, balki. Bilmayman, yurak — yurakka sim qoqdimi, yoshlik paytlari xotiraga keldimi, talablik chog'lari, turmush o'rtog'ingiz, u vaqtlarda Samarqand arxitektura va qurilish institutining talabasi bo'lmish Mavludaxonga, Sizning nomingizdan “Muhabbat maktublari” yozib berganlarim esga tushdimi, ishqilib, o'qiyotganlaringizni qog'oza tushirgim keldi. Bir paytlardagidek “Muhabbat maktubi” yoki 60 yoshga to'lganingizdagi singari, Sizni ta'rif-u tavsif qilguvchi maqola emas bu. Bu — uyqu qochganda bezovta qilgan o'ylar, xayollar, alkash-chulkash fikrlar. Burgutning kuchi – oyog'ida, odamniki – do'stlikda. Chol suhbbati – chol bilan. Shu tarzda bo'lsa ham bir dardlashgim keldi-da, chol bobo: *Xullas, yetmishga ham yetdik sog', omon, O'rta qoldi qancha dasht-u dala, qir. Buyog'i... Yaratgan Egamga ayon, Buyog'i... Yaratgan Egamga shukur.* *Mundoq o'ylab ko'rsak olib do'ppini, Umr deganlari ekan bir hubob. Umr deganlari ayni to'y kuni, To'satdan torlari uzilgan rubob.* *Hayot ne'matlarin ko'rdik xo'p to'lib, Goh mag'rur, goh masrur, goho qayrildik. Goh do'stman deganlar, ketdilar sotib, Goh suyanch tog'lardan bevaqt ayrildik.* *Gina qilmagaymiz shamoldan hatto, Bittadir o'tinch-u nolalarimiz: Toabad tinch bo'lsin zamin-u samo, Bearmon yashasin bolalarimiz.* “Ikki so'z: tinchlik va xotirjamlik – ming yombi oltindan qimmat”, deyishar ekan xitoylar. Yurtimiz tinch, bolalarimiz sog'-omon bo'lishsin. Do'stingga qo'shiq ayt, mehringni qo'shib ayt, deyidilar. Yetmishdek mo'tabar yoshga kirib, sevinchdan daryoday chayqalib turgan lahzalaringizda men ikkoviniyam qilolmadim. Ammo ishontirib aytamanki, yozuvchi jo'rangiz sifatida, Sizdan bir maqola qarzdorman. Sakson-u to'qsondan oshib, yuzlar bilan yuzlashib yurganingizda, albatta, qarzimni uzaman, Xudo xohlasa. Hurmat bilan, sinfdosh jo'rangiz, **Abdusaid KO'CHIMOV,** 4. 05. 2021-yil.

# Ustozning fikri bilan hamma hisoblashardi

Bundan 40–50 yillar oldin maktabda o'qib yurgan paytimiz bizga Makarenko, Krupskaya, Shatalov kabi pedagoglarni ibrat qilib ko'rsatishardi. O'zimizning milliy qahramonlarimiz, tarbiya ilmiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat haqida esa lom-mim deyishmasdi. Chunki o'sha paytdagi mafkura bunga yo'l qo'ymasdi.

9-may — Xotira va qadrlash kuni arafasida qishlog'imizda xalq ma'orifini rivojlantirishda katta hissa qo'shgan ustozimiz, urush qatnashchisi Samandar Qalandarovni yodga olib, uning qilgan ishlarini keng jamoatchilikka yetkazishni lozim topdim. Chiqirchilik Qalandar bobo va Poshshajon momolarning yetti o'g'li bo'lib, Samandar ularning to'ng'ich farzandi edi. U 1922-yilda tavallud topgan. Yettinchi sinfgacha qishloqdagi maktabda, o'ninchi sinfni esa qo'shni Xiva tumani Chinobod qishlog'ida o'qib bitkazdi. O'sha paytlari o'qituvchi bo'lishni ko'ngliga tutkan bo'lsa ajab emas. Mash'um urush boshlangan paytda Samandar Qalandarov 19 yoshda bo'lgan va birinchilardan bo'lib Vatan himoyasiga otlangan. Janglarda matonat va jasurlik namunalari ko'rsatadi. Qahramonliklari uchun bir qator orden-medallar, tashakkurnomalar bilan taqdirlanadi. Pribaltika fronti tarkibida Latviya poytaxti Riga shahri o'zod qilish uchun olib borilgan janglarda ishtirok etadi. Samandar ota urushdan oldin qo'shni Bog'ot tumanida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlagan, urushdan g'alaba bilan qaytgach, Xorazm davlat pedagogika institutining “tarix-geografiya” fakultetiga o'qishga kiradi va institutni muvaffaqiyatli tamomlab, qishlog'iga qaytib pedagoglik faoliyatini davom ettiradi. Maktabda tarix-geografiya fanlaridan yoshlarga saboq berdi, maktab direktori bo'lib ishladi. 1949–1954-yillarda kolxozga rahbarlik qilgan. U Yangiariq tumanidagi 11-, 7-, 21-maktablarda ham direktor bo'lib ishlagan. Bir voqea sira ko'z oldimdan ketmaydi. Chamasi 1973-74-yillar edi, men 1-2-sinf-larda o'qiydigan paytim qish qattiq kelib, qalin qog'yod. Qorda, sovuqda maktabga kelib, sovg'otganimdan isinish uchun qo'llarimni issiq pechkaga tutdim, u paytlar maktab pechda istilardi. Shunda barmoqlarim og'rib yig'lab o'tirganimda, maktab direktori Samandar ota ko'rib qolib, kabinetga olib ketdi. Boshimni silab divanga o'tqazib, menga elektr pechkani qaratib qo'yib, issiq choy quyib berdi. Maktab direktorining bu mehribonchiligini ko'rib, qo'llarimning og'rig'i ham esimdan chiqib ketdi. Haqiqatan ham ustoz odamiylik va mehr-oqibatda tengsiz edi. Dadam ham u haqidagi bir voqeani ko'p eslardi. 1964–66-yillar dadam yig'ib imorat qurib ko'chib chiqqan, uyda pol yo'q, yerga somon to'shab, ustiga kigiz yozib o'tirish-



gan. Bir kuni mehmonga kelgan Samandar ota ketar payti dadamga 300 so'm pul berib (o'sha paytlari bu katta pul edi), uyingga taxta olib pol qilgin, bolalaring namda yashamasin, pulni esa qachon qo'lingga pul tushsa o'shanda qaytararsan degandi. Samandar ota haqiqiy ma'nodagi pedagog, ustoz muallim, haqiqatga tik boquvchi, to'g'riso'z, halol inson edi. Kattalarga kattalarcha, bolalarga bolalarcha munosabatda bo'lar, xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega edi. O'sha paytdagi rahbarlar ustozni qattiq hurmat qilishar, uning fikrini inobatga olishardi. Hozirda Chiqirchi qishlog'ida-gi oltita maktabning faoliyat ko'rsatishida ustozning hissasi katta. Samandar ota pedagoglar sulolasining asoschisi desam yangilishmayman. Ikki ukasi Kenjaboy va Qadamboy akasining izidan borib o'qituvchilik kasbini tanlashdi. Farzandlari — uch o'g'li va olti qizi oliy o'quv yurtlarini bitirib, ota kasbini davom ettirishmoqda. Katta o'g'li Boltaboy Qalandarov fizika fanlari nomzodi, viloyat o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti prorektori. Harbiy xizmatdan qaytganimdan so'ng menga Samandar Qalandarov bilan birga ishlash nasib etdi. U kishi 261-sonli hunar-texnika bilim yurtida geografiya fanidan dars berar edi. Men bilim yurtiga rassom-bezovchi bo'lib ishga kirdim. Shunda u kishining bir necha ko'rgazmalarini tayyorlab berdim. U insonning men bilan xuddi o'zining tengquridagi munosabatda bo'lishlaridan boshim osmonga yetar edi. **Ro'zmat ABDULLAYEV,** Yangiariq tumanidagi 39-IDUM o'qituvchisi



## Uztozlar yodi

## Lahzaga muhrlangan masofa

2011-yilning kuz fasli. O'sha yillari o'qituvchini "tekshiruvchilar" soni mislsiz ko'paygan, xohlagan odam, xoh u tergovchi, xoh hokimiyatning oddiy xodimi bo'lsin, darslarimizni istagan vaqti ruxsatsiz bo'lib kirib, savol-javob o'tkazib, davomatni aniqlab chiqib ketishardi. Qog'ozbozlikni-ku, asti qo'yavering, eng avj olgan davri edi.

Men esa qishloqdan poytaxtga yangi ko'chib kelgan oddiy o'qituvchi edim, xolos. Poytaxt maktabida yaxshi o'qituvchi sifatida hurmat qozonish ancha mushkul. O'shanda o'zimni yo'qotmagandim. Chunki mening oliy maqsadim bor edi. Bu — poytaxtda eng ilg'or o'qituvchi bo'lish. Qishloqdan kelgan muallimning shaharlik o'qituvchidan nimasi kam?! Poytaxtda dars o'tish uchun hamma sharoit bo'lsa, qishloqda-chi, ba'zan chiroq yo'qligidan kechalari shamda dars ishlanmasi yozardik. Sinf xonalari-ku, gapirmay qo'yavering, qishda yaxlab, dildirab dars o'tardik.

Shunday qilib, ilg'or o'qituvchi bo'lgan deb tinmay o'z ustidam ishlardim, zamon yangiliklarini o'rganar va ularni ta'limga olib kirishga harakat qilardim. Buning uchun kerak bo'lsa, kechalari uxlamay ijod qilishimga to'g'ri kelardi.

Birinchil qilgan ishim — o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash bo'lgan. Tahlil natijalari o'quvchilarning og'zaki nutqida sezilarli kamchiliklar borligi, fikrlarini bayon etishga qiynaloyotganliklarini ko'rsatdi. Birinchi vazifam ularning muloqotga kirisha olish ko'nikmalarini shakllantirish edi. Chunki rus tilida ta'lim beriladigan maktab bo'lganligi sababli o'quvchilar o'zbek tilida bimalol so'zlashish, o'z fikrini bayon etishga qiynalishardi. Ular bilan ko'proq suhbat qurishga, lug'at bilan ishlashga harakat qilardim. Darslarimni ham og'zaki tarzda mashq va topshiriqlar bajarishga mo'ljallab rejalashtirar edim.

Shuningdek, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, badiiy kitobga oshno qilib maqsadida turli asarlardan badiiy reklamalar tayyorlab boshladim.

Masalan:

— *Hurmatli o'quvchilar! Bolalar shoiri va yozuvchisi Tursunboy Adashboyevning "Orzularim qo'sh qanotim" nomli kitobini tez topib o'qinglar! U yerda qiziqarli she'r va ertaklar bor.*

*Bir qop sabzi ortib, bo'riga baqirgan zumrasha quyon haqida bilmog'chimisiz? Unda "Ko'zin ochsa" ertagini o'qing. E-he-he-hey! O'qimaganlar armonda, o'qiganlar darmond!*

Badiiy reklamalarni tayyorlashda o'quvchilarning yoshi va qiziqishlarini inobatga olardim. Asarning eng qiziq sujetidan o'quvchilarga hikoya qilardim. O'quvchilar meni diqqat bilan tinglardim. Voqeaning esa nima bilan tugashini intiqlik bilan kutar edilar. Eng qiziq joyi kelganda hikoyamni yakunlasam, sinfxonada baqir-chaqir bo'lib ketardi. Ular mendan hikoyaning davomini so'zlab berishini yalinib so'rar, men esa kim birinchi bo'lib asarni o'qib kelsa, shu davom ettirardi derdim. Shunday qilib o'quvchilar kimo'zarga badiiy kitoblarni mutolaa qila boshladi.

Bir kuni shunday badiiy reklamamni o'quvchilarga havola etib, xohlaysizlarmi hikoyani asar muallifi davom ettiradi, degandim, o'quvchilarim hayratdan ko'zlarini katta-katta ochib, buni qanday uddalay olarkan, deb menga termulib qarashdi. Shunda bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev monitorida namoyon bo'lib: "Salom mening jaji muxlislarim!", deb o'quvchilarga murojaat qildi. O'quvchilar hayratdan qichqirib yuborishdi. O'sha payt o'quvchilar uchun bundan ortiq baxt yo'q edi, chamamda. Chunki ular shoir bilan yuzma-yuz turardi.

Ana shu daqiqalar menga o'qituvchilik kasbining naqadar sharafi va aziz ekanligini anglatgan. O'quvchilar birin-ketin asarlar yuzasidan muallifga turli-tuman savollar berishar, adibning javoblari diqqat bilan tinglashardi. Savol berish jarayonida ikkinchi tilda so'zlashayotganini, ravon tarzda o'z fikrini mustaqil bayon etishayotganini ham sezmasdi. Buni faqat men sezardim, chetdan mamnunlik bilan, huzur qilib kuzatar edim. Chunki bu mening g'alabam edi, oddiy o'qituvchining maqsadga erishish yo'lidagi yutug'i.

Dars so'ngida muallif menga oldindan yetkazgan kitoblarni faol qatnashgan o'quvchilarga berishini aytgandi. Kitob ololmagan o'quvchilar keyingi jonli muloqot darsigacha ijodkor tavsiya etgan kitoblarni o'qish, viktorinada faol qatnashib, dastlabki sovg'aga beriladigan kitobni qo'lga kiritishga oshiqar edi.

Shunday qilib, o'quvchilarimning badiiy kitoblarni o'qish, asar qahramonlariga tavsif berish va o'z mustaqil fikrini bimalol bayon eta olish bo'yicha ko'nikma va malakalari rivojlanib, nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga poydevor bo'lgandi.

Shoir va yozuvchilar hamkorlik darslarida ishtirok etish bo'yicha biror marta rad javobini berishmagan. Chunki bunday darslar ularning bugungi kun kitobxon bilan o'z ish o'rnida ortiqcha harakatlarsiz, masofadan turib muloqot qilishi va ularning ehtiyojlarini aniqlashda qo'l kelardi. O'quvchilarga esa bunday darslar zavq bag'ishlardir, ular ko'proq shunday darslar o'tishini talab qiladigan bo'ldi. Men esa, nafaqat shoir va yozuvchilar, balki turli soha mutaxassislari — sportchilar, shifokorlar, ota-onalar, mahalla faxriylari va bir qator taniqli shaxslar ishtirokida darslarni olib boraverdim.

Bu bilan ta'limda yangilik qilganimni ham sezmay qolibman. Barcha ommaviy axborot vositalarida yurtimizda ilk bor "onlayn-dars" olib borilganligi xususida ma'lumotlar berila boshladi.

Kechagidek eslayman, jurnalistlar mendan ilk bor intervyu olishganda yig'lab yuborgan edim. Chunki qishloqlik oddiy bir o'qituvchi bo'lib, bilib-bilmay ta'limga innovatsiya olib kirgan edim.

Bir kuni ommaviy axborot vositalari jurnalist va muxbirlari iltimosiga ko'ra, Toshkent shahri miqyosida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari asosida mahorat darsini o'tib beradigan bo'ldim. Tezda adibning manzilini topib uyiga yo'l oldim. Adib xonadoniga borganimdan keyin uning betobligini bildim. Yaqin kunlarda tibbiy jarohlik yo'li bilan davolangan ekan. Meni ko'rib xursand bo'ldi. Hol-ahvol so'rganim zahoti, darsda ishtirok etishini aytdi. To'g'risi, men bunga qarshilik bildirdim va darsni keyingacha qoldirish mumkinligini aytdim. Biroq ustoz, bugun kitob o'qiyman degan bola-

ga, bugunning o'zida qo'lga kitob tutish kerakligi, aks holda bola niyatidan qaytishi va shu onning o'zida internet bilan do'stlashishi mumkinligini aytib, menga vaziyatni tushuntirdi. Biz o'qituvchilar doim ogoh bo'lishimiz va buni yodda tutishimiz kerakligi xususida maslahat berdi.

Ertasi kuni rejalashtirilgan mahorat darsimni olib bordim. Darsda Stepan degan o'quvchim shunday savol bergan edi: "Xudoyberdi bobo, nega asarning nomini "Sariq devni minib", deb nomladigiz. Nega aynan sariq devni tanladigiz, qora devni ham olish mumkin edi-ku?". Shunda adib xoxolab kulib: "Mana, ko'rdingizmi Buxolida, siz bu savolga javob berolmas edingiz. Shuning uchun darsda qatnashishga harakat qildim-da!?", degandi.

Mana, oradan shuncha yillar o'tdi. Men o'qitgan o'quvchilar hozirgi kunda o'z kasbining ustasi bo'lib, yurtimiz ravnaqiga katta hissa qo'shmoqda. Ular bilan bayramlarda ko'rishib qolaman. Menga erishgan yutuqlari, oilasi va farzandlari haqida, shuningdek, oilalarida mo'jazzgina kutubxonalari borligi haqida jo'shib gapiradilar. Farzandlari ham badiiy kitoblarni ko'p o'qishlarini aytishadi. O'shanda bu yutuqlarga erishishlari, barkamol inson bo'lib voyaga yetishda nafaqat ustozlarning, balki fidoyi ijodkorlarimizning ham mehnati borligini uqtiram.

Umr qisqa, u qarav suvga o'xshaydi. Tug'ilmoqdan to o'limga qadar masofaning lahza deganligini anglolmay ham qolamiz. Ushbu ikki nuqta orasida giron bo'lamiz. Farzandimizga moddiy meros qoldirish ilinjida, ba'zan ma'naviy merosni unutamiz. Ikki dunyo saodatiga faqat ezigulik eltishini anglolmay qolamiz.

Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Xudoyberdi To'xtaboyev kabi fidoyi, hayotini bolalar dunyosida o'tkazgan shoir va yozuvchilarimiz borki, ular insoniyatga o'z asarlari bilan komillikni, vatanparvarlik tuyg'usini, ilm-ma'rifatni meros qilib qoldirdilar. Lahzaga muhrlangan masofaning har bir qirichiga ma'naviyat va barkamollik urug'ini ekib ketoldilar.

Buxolida SO'PIYEVA,  
Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi katta o'qituvchisi

## O'qituvchi, rahbar, psixolog

El nazardagi ustoz bo'lish uchun tug'ma qobiliyat lozim. Angren shahridagi 35-maktab rahbari Xadicha Boltaboyeva shunday qobiliyat egasi. Ustoz 1984–1989-yillarda Toshkent viloyati davlat pedagogika instituti filologiya fakultetida tahsil olgan.

1989-yili Angren shahar XTBga qarashli 28-maktabda rus tili o'qituvchisi sifatida mehnat faoliyatini boshlagan. 1994–2000-yillarda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK)ga qarashli Angren kon boshqarmasida tarjimon, maxfiy bo'limda direktor o'rinbosari bo'lib ishlagan. 2000–2002-yillarda shahardagi 28-maktabda

direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimida ishlagan Xadicha Boltaboyeva 2002-yildan shahardagi 35-maktab direktori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu yillar davomida unga bir qancha nufuzli tashkilotlardan ish taklif qilingan bo'lsa-da, chinakam fidoyi ustoz o'qituvchilikni tark etmadi.

Jamoatchilik hamkorligidagi sa'y-harakatlar hamda jonkuyar rahbarimizning yelib-yugurishlari natijasi o'laroq, uzoq yillar davomida orziqib kutilgan yangi 35-maktab binosi 2019-yilda qurib, foydalanishga topshirildi. Yangi maktab tasarrufiga shahardagi 13-maktab filiali ham kiritildi. Ushbu filialda avval faqat boshlang'ich sinflar o'qigan bo'lsa, endilikda 5–6-sinflar ham ochildi.

Xadicha Boltaboyeva o'ta ziyarak psixolog desak adashmaymiz. Chunki mehribon muallima har bir xodim bilan do'stona munosabat o'rnatib, nafaqat kasbiy faoliyatimizda,

balki oilaviy munosabatlarda ham samimiy fikr-mulohazalarini ayamaydi. Ustoz zimmasidagi vazifalardan ortib, mahalladagi bemor kishilar, yolg'iz qariyalar hamda ta'lim faxriylari holidan doimiy ravishda xabar olib turadi.

Sport sohasida ham yutuqlarimiz talaygina. 3-sinf o'quvchisi — jaji sportchimiz Sardorbek Ibraimjonov sportning "Ashixare karate" turining "Kata kumite" yo'nalishi bo'yicha ko'plab musobaqalarda ishtirok etib, Navoiyda bo'lgan ochiq chempionatda faxrli III o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanmani

qo'lga kiritdi. 8-sinf o'quvchisi Samandar Abdusattorov yunon-rum kurashi bo'yicha O'zbekiston chempionatida I o'rinni egallagan. 9-sinf o'quvchisi Zafar Qo'chqoraliev boks bo'yicha musobaqalarda qatnashib, xalqaro turnirda II o'rinni qo'lga kiritgan.

Ustozning kelgusidagi maqsadlaridan biri sportchi o'quvchilarimiz sonini bundan ham ko'paytirishdir. Mana shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda har tomonlama qulay va zamon talablariga javob beradigan sportzal barpo etilishiga erishishga harakat qilinayapti.

Charos XUDOYNAZAROVA,  
Angren shahridagi  
35-maktab o'qituvchisi

E'zoz

# Yetuk olim — mohir pedagog

O'zbek til ilmi va ta'limi rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan tilshunos olim va pedagog, filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyev 75 yoshga to'ldi. Ustoz bu muborak kunni ibratli hayot yo'li va salmoqli ijod mahsuli — monografiyalari, darsliklari, o'quv va uslubiy qo'llanmalari, ilmiy-ommaviy nashrlari va maqolalari bilan munosib shogird va izdoshlari davrasida kutib olmoqda.

Samixon Ashirboyev 1946-yil 18-aprelda Qozog'iston Respublikasi Chimkent viloyati Turkiston tumani Koriz qishlog'ida tavallud topdi. 1953-yilda Turkiston shahridagi Toshkent temir yo'liga qarashli 42-maktabning 1-sinfiga bordi va 1958-yildan o'qishini Koriz qishlog'ida "Birlik" maktabida davom ettirdi. 1960–1964-yillar davomida Turkiston pedagogika bilim yurtida tahsil oldi. Uni a'lo baholarga bitirib, 1964-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti tarix-filologiya fakultetining o'zbek tili va adabiyoti bo'limiga o'qishga kirdi. Iqtidorli talaba bo'lgani tufayli institut Ashirboyevni qo'yib yuborgisi kelmasdi. 1968-yili umumiy tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi bo'ldi.

Samixon Ashirboyevning o'zbek tilshunosligidagi faoliyati tashabbusli, tarixiy va nazariy ahamiyatga molik. U birinchilardan o'zbek tilshunosligi tarixini tadqiq obyekti qilib olgan. Ustoz professor Saidzoda Usmonov rahbarligida "O'zbek tili grammatik qurilishining o'rganilish tarixidan (1875–1917-yillardagi rus turkologlari asarlariga asosida)" mavzudagi nomzodlik dissertatsiyasini yozdi va 1975-yil 16-aprelda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti qoshidagi Ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qildi.

S.Ashirboyev Alisher Navoiy asarlari sintaksisining ham birinchi tadqiqotchisidir. Buning natijasi o'laroq 1990-yilda "Alisher Navoiyning nasriy

asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Uning semantik va diaxron planda yoritilgan mazkur tadqiqot ishi ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan yuksak baholandi. Bu tadqiqotning yuzaga kelishi respublikamizda xalqimizning ma'naviy mulki sanalgan milliy tilning nufuzini tiklash, uni hayotimizning barcha jabhalarida qo'llashga ehtiyoj sezilgan, milliy adabiy tilga e'tibor kuchaygan davrga to'g'ri keldi. Shuning uchun keng jamoatchilik yaxshi kutib oldi. Tadqiqot natijalari nafaqat tilshunoslarga, balki adabiyotshunoslarga, Navoiy ijodi ixlosmandlariga ma'qul bo'ldi.

Olimning tarixiy manbalar tili tadqiq bo'yicha bir necha ilmiy ishi mavjud. U "Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xususiyatlari", 1993-yilda "Alisher Navoiyning nasriy asarlarida murakkablashgan sodda gaplar" monografiyasini, 1988-yilda "Alisher Navoiy prozasi — sintaktik tadqiqot obyekti", 1997-yilda "Qutbning "Xisrav va Shirin" dostoni va "O'zbek adabiy tili" nomli risolalarini e'lon qildi. Shuningdek, ustozning til tarixiga bag'ishlangan 50 dan ortiq ilmiy maqolasi mavjud.

Samixon Ashirboyevning ilmiy-pedagogik faoliyati Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi universitet) va Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti bilan

bog'liq. U o'zining pedagogik faoliyatini kafedrada o'qituvchi lavozimidan boshlagan bo'lsa, keyinchalik professor, kafedra mudiri darajasigacha barcha ilmiy unvon va darajalarni egaladi, fakultet dekani o'rinbosari, dekani va keyingi 15 yil davomida universitet prorektori lavozimlarida ishladi.

Ashirboyev mazkur dargohning o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalariga "Qadimgi turkiy tili", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi", "O'zbek adabiy tili tarixi", "O'zbek dialektologiyasi", o'zbek tili mutaxassisligi magistrantlariga esa "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanlaridan dars berdi. U 1992-yildan boshlab mazkur fanlarning o'quv dasturlarini yaratdi.

Domlaning 1996-yildan keyingi faoliyati oliy pedagogik ta'lim mazmunini standartlashtirish bilan bog'liq. U "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"ning "O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani" ta'lim sohasiga kirgan 33 ta bakalavriat yo'nalishi va 57 ta magistratura mutaxassisligi Davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv rejalarini va fan dasturlarini yaratuvchi ijodiy guruhga rahbarlik va bevosita mualliflik qildi. Shuningdek, bakalavriat va magistratura bosqichlari bo'yicha o'quv-me'yoriy hujjatlarni yaratish va joriy qilish bo'yicha nazariy, amaliy masalalarni ilmiy nashrlarda va matbuotda doimiy ravishda yoritib bordi.

S.Ashirboyev Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning ilmiy kotibi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi oliy o'quv yurtlararo "Ta'lim" ilmiy-metodik birlashmasi raisi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari qoshidagi "Maxsus sirtqi bo'limlarda bakalavrlar da-

rijasida o'qitishning ilmiy-amaliy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash"ning raisi sifatida keng qamrovli faoliyat olib borgan.

O'zbekiston Respublikasi olimi, mutaxassisi sifatida Qozog'iston Respublikasidagi o'zbek maktablari uchun tuzilgan "O'zbek tili" fani Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi hamda 5,6,7,8,9-sinflarning "O'zbek tili" darsligi, uning didaktik materiallari va o'qitish metodikalarning muallifi va guruh rahbari sifatida faoliyat yuritgan. Uning 2016-yilda nashrdan chiqargan "O'zbek dialektologiyasi" darsligi mustaqillik yillarida yaratilgan eng zamonaviy darslik sifatida e'tirof etilgan.

Ustoz tilshunoslik bo'yicha malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga ham barakali hissa qo'shib kelmoqda. S.Ashirboyevning bevosita ilmiy rahbarligida 8 nafar shogirdi nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan, 3 nafar shogirdining doktorlik dissertatsiyasi himoya qilinshiga tayyor. Domlaning rahbarligida nafaqat tilshunoslari, balki pedagogika ilmiy oid dissertatsiyalar muvaffaqiyatli himoya qilindi. U yigirmadan ortiq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalariga rasmiy opponentlik qilgan. Bir necha yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Til va adabiyot insituti qoshidagi O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish uchun ustozning ra'yi sifatida faoliyat olib borgan. S.Ashirboyev noshirlikda ham o'zini sinab ko'rdi. U bir necha yillar "Pedagog" jurnali tahririyatida faoliyat olib bordi.

Ustoz hayotda ham, ilmda ham bardam, ijodda esa sarmahsul. Shuning uchun uning oldiga qo'ygan rejalarini katta: "Bir muallim sifatida shunga aminmanki, biz nafaqat o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'ygan xalqimiz, balki bu maqsadlarga erishish uchun tinimsiz harakat qilayotgan va ularga bos-



qichma-bosqich erishayotgan bunyodkor millatimiz. Mamlakatimizda shunday islohotlar amalga oshirilyaptiki, unda jamiyat hayotidagi biror soha ham e'tiborsiz qolmayapti. Qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ko'rib, qalblarda iftixor va shukrona hislarini tuyamiz. Ayniqsa, yoshlarga berilayotgan e'tibor, ularning barkamol shaxslar bo'lib yetishishi uchun ta'lim, sport, madaniyat va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarga qarab shu Vatanda yashayotganimdan, shu yurtga mansubligimdan g'ururlanib ketaman!"

Biz esa ustozga murojaat qilib, shunday degimiz keladi:

— Siz ulug' ustozlargiz etagidan tutib, yirik fan arboblari va murabbiylar ko'magida hamda maslakdoshlargiz va shogirdlargiz bilan birga o'zbek tilshunosligi, ona tili ta'limi va amaliyotini yuksak darajalarga olib chiqishga muvaffaq bo'ldingiz, yetuk tilshunos olim sifatida qadr topdingiz. Ilmiy ishlaringiz sarmahsul faoliyatingizning o'q ildizidir. Biroq yaratgan darslik, o'quv va metodik qo'llanma, lug'at va dasturlaringiz Sizni mohir pedagog sifatida ham e'tirof etish va ardoqlashga asos bo'ladi.

Jamoamiz ushbu qutlug' ayyomda Sizga Yaratgandan mustahkam sog'lik va uzoq umr, oilaviy xotirjamlik va baxt-saodat, ijodiy ishlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qoladi.

Sulton NORMAMATOV,  
Alisher Navoiy nomidagi Tosh-  
DO'TAU prektori,  
filologiya fanlari doktori  
Baxtiyor MENGLIYEV,  
Alisher Navoiy nomidagi Tosh-  
DO'TAU kafedra mudiri,  
filologiya fanlari doktori,  
professor

## Bobomning hikoyasi

Urush qatnashchisi bo'lgan bobom Ashur Xudoyqulov har safar biz nabiralari jang xotiralari haqida gapirib berar ekan, ayniqsa, Oder daryosi bo'yidagi jangni eslaganida ko'zlaridan yosh oqardi...

— Safdoshlarimning ham o'qlari tugagan, ko'plari yarador, atrof o'liklarga to'lib borar, mendan ancha narida o'q-dori va pulemyot ortilgan ot yaranlab, aravasi esa yonboshlab yotardi. Toshlar panasida emaklayapman, o'qlar esa yomg'irdek boshim uzra g'izillab o'tardi. Safdoshlarim orasida Ivan Klushin degan do'stim bor edi, u toshga osilgan qimिर etmay qol-

di, surgala-surgala yoniga bordim, lablari quruqshab, nimadir demoqchi bo'ldi, idishimni olib suv tutdim, ichdi. Yo, Rabbii, uning qorin tarafi yulini ketganidan suv tashqariga qonga aralashib oqib chiqardi, do'stim qo'limda jon berdi.

Meni uzoqdan payqagan dushman pulemyotchilari ustimga qatorasiga o'q yog'dirdi, yonboshlab qolgan aravaning g'ildirak-

lari maydalanib, boshim uzra uchib o'tardi. Qo'limdan jarohat ham oldim. Baxtinga birdan saf tortib kelayotgan dushmanning avzoyi buzilib, baqir-chaqir, to's-to'polon boshlandi. Ularga berilgan zarbadan quvongan bizning askarlar ham har joylardan turib dushmanga qarshilik ko'rsata boshladilar. Dushman o'qi shundoqqina qulog'im oldidan g'izillab uchdi, ortga qalqib ketdim, ammo hushimni yo'qotmagan holda pulemyotdan tinmay o'q otardim. Jarohatni bog'lashga ham fursatim yo'q, chap qo'lim ustidan qon oqib, pulemyotning ustiga tushgan, barmoqlarimga yopishardi.

Bobom og'ir tin olib, hikoyasida davom etardi:

— Yana bir safar Ivanova shahrida mustahkam o'mashib olgan, tish-timog'igacha qurollangan dushmanga qarshi kurash-

ayotgandik. Har bitta ko'p qavatli uy uchun haftalab jang qilganmiz. Bugun bizniki bo'lsa, ertasi kuni dushman jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatib, qo'limizdan tortib oldi, qancha do'stlarimizni yo'qotdik. Ayni damlarda jangchilarimiz emaklab yuraver-ganidan kiyimlari titilib ketgan, qolaversa ochlik ham tinkani quritardi. Biz vaqtincha ortga chekindik, ammo ortimizdan kelgan zaxira kuchidan so'ng, bir hafta o'tib do'stlarimizning o'chini oldik, ko'p qavatli uyda maishat qilib turgan 30 ga yaqin dushmanning asir olib, qurollarni qo'lga kiritdik, — deganlarida jangda g'olib bo'lgandek ruhiyati ko'tarilardi.

Lobar XUDOYQULOVA,  
Qamashi tumanidagi  
3-maktabning Ijodiy-madaniy  
masalalar bo'yicha targ'ibotchi

# FIZIKA

1. Geliy gazi izobarik sovitilganida sovitkichga  $Q$  issiqlik miqdori uzatildi. Bunda gazning ichki energiyasi qanchaga o'zgardi?

- A)  $Q/2$  B)  $3Q/5$   
C)  $2Q/5$  D)  $3Q/2$

2. Quyidagi formulalardan  $v_0$  qaysi biri tezlik bilan yuqoriga otilgan jismning  $h$  balandlikdagi tezligini hisoblashda qo'llaniladi?

- A)  $\sqrt{v_0^2 - 2gh}$  B)  $\sqrt{v_0^2 + gh}$   
C)  $\sqrt{v_0^2 + gh}$  D)  $\sqrt{v_0^2 + 2gh}$

3. Vodorod atomlari 8-energetik sathgacha uyg'otilgan. Bu gazning nurlanishida maksimal nechta spektral chiziqlar kuzatilishi mumkin?

- A) 28 B) 10 C) 21 D) 15

4. Bir gramm vodorod gazida qancha atom bor?


- A)  $1,5 \cdot 10^{23}$  B)  $3 \cdot 10^{23}$  C)  $0,5 \cdot 10^{23}$  D)  $6 \cdot 10^{23}$

5. O'zgaruvchan tok zanjiriga ketma-ket rezistor, kondensator ( $C=6$  mF) va induktiv g'altak ( $L=60$  H) ulangan. Rezonans ro'y berganda o'zgaruvchan tok kuchining amplituda qiymati 4 A deb hisoblab, shu paytda induktiv g'altakdagi kuchlanish amplitudasini (V) aniqlang.

- A) 0 B) 400 C) 80 D) 800

6. Rasmdagi mexanik ko'ndalang to'lqin o'ngga tarqalmoqda. A nuqta qaysi tarfaga harakatlanmoqda?

- A) pastga B) o'ngga  
C) yuqoriga D) chapga



7. Induktiv g'altak magnit oqimi 50 mWb, magnit maydon energiyasi 100 mJ. G'altakning induktivligi (mH) nimaga teng?

- A) 50/3 B) 45/2 C) 25 D) 25/2

8. Alyuminiy simning uzunligi 2 m, ko'ndalang kesim yuzi 2 mm<sup>2</sup>. Simni cho'zuvchi 60 N kuch ta'sirida sim qanchaga (mm) uzayadi? Alyuminiyning elastiklik moduli 70 GPa.

- A) 3/7 B) 12/7 C) 9/7 D) 6/7

9. Botiq ko'priknig quyi nuqtasidan doimiy tezlik bilan o'tayotgan 0,8 t massali mashinaga ta'sir qilayotgan natijaviy kuch 3,5 kN ga teng. Shu paytda mashinaning og'irligi (kN) qanday?

- A) 11,5 B) 4,5 C) 8 D) 3,5

10. Tinch turgan 12 kg massali bomba portlab ikki qismga parchalandi. Bunda 10 kg massali birinchi bo'lak 4 m/s tezlik oldi. Ikkinchi bo'lakning kinetik energiyasini (J) hisoblang.

- A) 100 B) 800 C) 200 D) 400

11.  $m$  massali,  $l$  uzunlikdagi sterjen tik holda suvda suzib yuribdi, uning suvning ichidagi qismi 0,4l. Sterjenni tik holda suvdan chiqarish uchun zarur bo'lgan minimal energiya hisoblansin.

- A) 0,4mgl B) 0,3mgl C) 0,35mgl D) 0,2mgl

12. Elektrolit vannada Ag<sup>+</sup> ionli eritma bor. Katodda 108 g kumush (Ag) ajralib chiqishi uchun, katodga kelib yopishib qolgan barcha ionlarning umumiy zaryadi (C) qancha bo'lishi kerak?  $M(\text{Ag})=108$  g/mol.

- A) 193000 B) 48250 C) 144750 D) 96500


13. Ichki qarshiligi 1 Ω bo'lgan manbaga qarshiligi 11 Ω bo'lgan iste'molchi ulangan. Iste'molchidagi tok kuchi 1 A bo'lsa, manbaning EYuKini (V) aniqlang.

- A) 11 B) 12 C) 13 D) 10

14. Avtomobilning dastlabki tezligi 40 km/h, 100 m yo'lda uning tezligi 60 km/h ga yetgan. Uning tezlanishi (km/h<sup>2</sup>) qanday?

- A) 100 B) 10 C) 10000 D) 1000

15. Elektr zanjir A va B nuqtalar orqali manbaga ulangan. Undagi barcha qarshiliklar teng. Agar A va C nuqtalar orasidagi kuchlanish 6 V bo'lsa, B va C nuqtalar orasidagi kuchlanishni (V) aniqlang.



- A) 6 B) 4 C) 4,5 D) 9

16. Garmonik tebranayotgan jismning maksimal tezligi 5 m/s, siklik chastotasi 2 rad/s. Tebranishdagi maksimal tezlanish (m/s<sup>2</sup>) nimaga teng?

- A) 10 B) 5 C) 0,2 D) 2,5

17. Elektr maydon kuch chiziqlari janubga yo'nalgan. Bu maydondagi pozitronga ta'sir etuvchi Kulon kuchi qanday yo'nalgan?

- A) janubga B) shimolga  
C) g'arbga D) pastga

18. Silliqlik gorizontal sirtida turgan jismning impulsi 16 kg·m/s ga o'zgarishi uchun 16 N kuch bu jismga qancha vaqt (s) davomida ta'sir qilishi kerak.

- A) 2,56 B) 2,2 C) 2 D) 1


19. 100 g massali jism 0,4 m radiusli aylana bo'ylab harakatlanmoqda, aylanish tezligi 54 km/h. Markazga intilma kuch (N) topilsin.

- A) 52,5 B) 46,75 C) 56,25 D) 36

20. 200 K temperaturali geliy molekularining o'rtacha kvadratik tezligi azot molekularining o'rtacha kvadratik tezligiga teng. Azotning temperaturasini (°C) aniqlang.

- A) 1400 B) 1127 C) 727 D) 1000

21. Ideal gazni (bir atomli) 1-holatdan 2-holatga o'tkazish uchun unga qancha issiqlik miqdori (kJ) berish kerak? Gazning dastlabki hajmi 0,7 m<sup>3</sup>, gaz bosimlari mos ravishda  $P_1=105$  kPa,  $P_2=165$  kPa



- A) 84 B) 42 C) 63 D) 105

22. Nuqtaviy zaryaddan 2,5 sm masofadagi nuqtada elektr maydon potentsiali -15 V. Shu nuqtadagi maydon kuchlanilgini (V/m) toping.

- A) 375 B) 500 C) 37,5 D) 600

23. Qutqaruv chamberagining massasi 3,3 kg. Uning suvdagi ko'tarish kuchini (N) toping. Chamberakning zichligi 200 kg/m<sup>3</sup>.

- A) 145 B) 132 C) 127 D) 155


24. Tinchlikdagi massasi 0,8 kg bo'lgan jism 0,6c tezlik bilan harakatlansa, uning massasi qanchaga (kg) o'zgaradi?  $c$  - yorug'likning vakuumdagi tezligi.

- A) 0,16 ga kamayadi B) 0,2 ga ortadi  
C) 0,16 ga ortadi D) 0,2 ga kamayadi

25. Quyida keltirilgan fikrlarning qaysi bir(lar) i to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang. 1) Bir tomoni kumush bilan qoplangan shisha plastinaga ko'zgu deyiladi. 2) Ko'zgu dagi aksimizga qarab, unga o'ng qo'limizni uzatsak, aksimiz chap qo'lini uzatadi.

- A) 1 - to'g'ri, 2 - to'g'ri  
B) 1 - noto'g'ri, 2 - to'g'ri  
C) 1 - to'g'ri, 2 - noto'g'ri  
D) 1 - noto'g'ri, 2 - noto'g'ri

26. G'altakdan o'zgarimas tok o'tkazilganda uning ikki yoniga qo'yilgan doimiy magnitlar rasmdagidek joylashib qoldi. Magnitlarning chap tarafdagi qutblarini aniqlang.




- A) I - S, II - S B) I - S, II - N  
C) I - N, II - N D) I - N, II - S


27. Vodorod atomidagi elektron energiyasini 0,65 eV ga o'zgartirishi uchun qanday chastotali (Hz) foton chiqarishi kerak?

- A)  $2,47 \cdot 10^{16}$  B)  $3,15 \cdot 10^{15}$   
C)  $2,93 \cdot 10^{15}$  D)  $1,57 \cdot 10^{14}$

28. Jism 15 m/s tezlik bilan tik yuqoriga otiladi va ma'lum vaqtdan keyin yerga qaytib tushadi. Oy o'qining musbat yo'nalishi sifatida jismning yuqoriga otilish yo'nalishini qabul qilib, jismning tezlik grafignini ko'rsating.



29. Elektr zanjiridagi EYuK  $\mathcal{E} = 2$  V. Agar  $R_1 = 2$  r va  $R_2 = 3$  r bo'lsa, voltmetrning ko'rsatishini (V) aniqlang.  $r$  - manbaning ichki qarshiligi.



- A) 6/5 B) 4/5 C) 1 D) 2/3

30. Tebranish konturida tok kuchi  $i = 100 \sin(200\pi t + \frac{\pi}{6})$  (mA) qonuniyat bilan o'zgararmoqda. Konturdagi elektromagnit tebranishlar chastotasini (kHz) aniqlang.

- A) 1 B) 0,1 C) 10 D) 100

# BIOLOGIYA

1. Asalari qurti (a), tulki (b), oltingugurt bakteriya (c) uchun mos tushunchalar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) a-konsument; b-xemotrof; c-yirtqich  
B) a-konsument; b-fototrof; c-fototrof  
C) a-konsument; b-yirtqich; c-xemotrof  
D) a-yirtqich; b-konsument; c-geterotrof

2. Turkum sistematik birligiga mos keluvchi javobni aniqlang.

- A) yassi chuvalchanglar, burchoqdoshlar  
B) mollyuskalar, lolasimonlar  
C) afsonak, ninachilar  
D) halqali chuvalchanglar, karamdoshlar

3. Qaysi sutemizuvchi hayvonlarning qoziq tishlari kuchli rivojlangan?

- A) to'ng'iz, ilvirus, nutriya  
B) oloqozan, larcha, kalamush  
C) norka, larcha, morj  
D) morj, ondatra, jayra

4. Qora jusan hujayrasining qaysi qismlari ikki qavat membranadan tuzilgan? 1) lizosoma; 2) vakuola; 3) plastida; 4) endoplazmatik to'r; 5) mitoxondriya; 6) Golji majmuasi; 7) yadro

- A) 4, 6, 7 B) 1, 5, 6 C) 2, 4, 7 D) 3, 5, 7

5. Qaysi javobda proterozoy → paleozoy → mezozoy eralarida sodir bo'lgan aromorfozlar mas ravishda ketma-ket berilgan?

A) halqali chuvalchanglar tipi vakillarining paydo bo'lishi, dastlabki bosh skeletsizlar kenja tipining paydo bo'lishi → tuproqda dastlabki quruqlikdagi o'simliklar psilofitlarning tarqalishi → xaltali sutemizuvchilar kenja sinf vakillarining paydo bo'lishi

B) suyakli baliqlar sinfining kelib chiqishi → sutemizuvchilarning yo'ldoshli kenja sinf vakillarining paydo bo'lishi → dastlabki bosh skeletsizlar kenja tipining paydo bo'lishi

C) suvda hamda quruqlikda yashovchilar sinfining dastlabki turlarini vujudga kelishi → dastlabki bosh skeletsizlar kenja tipining paydo bo'lishi → xaltali sutemizuvchilar kenja sinf vakillarining paydo bo'lishi

D) ochiq urug'li o'simliklarning paydo bo'lishi → dastlabki bosh skeletsizlar kenja tipining paydo bo'lishi → suyakli baliqlar sinfining kelib chiqishi

6. Nereidaning endoderma hujayrasidagi bir membranali (a), ikki membranali (b), membranasi (c) tuzilmalar ko'rsatilgan javobni aniqlang. 1) ribosoma; 2) hujayra markazi; 3) lizosoma; 4) vakuol; 5) silliq endoplazmatik to'r; 6) mitoxondriya; 7) golji majmuasi; 8) donador endoplazmatik to'r

- A) a-5; b-6; c-1 B) a-3; b-4; 7; c-1  
C) a-4; b-5; c-1 D) a-7; b-3; 6; c-2, 4

7. Bargi murakkab tuzilgan, qiyshiq gulli (a) va bargi murakkab tuzilgan, to'g'ri gulli (b) o'simliklarni ko'rsating. 1) yeryong'oq; 2) olma; 3) yan-toq; 4) shirinmiya; 5) na'matak; 6) tamaki; 7) tuxumak; 8) beshyaproqli partenotsissus.

- A) a - 6, b - 8 B) a - 4, b - 5  
C) a - 1, b - 7 D) a - 3, b - 2

8. Bir hududda yashovchi turli populatsiyalarining o'zaro munosabati (1), pingvinlarning koloniyasi hosil qilishi (2) tiriklikning qaysi tuzilish darajasida sodir bo'ladi?

- A) 1 - biogeotsenozi; 2 - populatsiya  
B) 1 - biogeotsenozi; 2 - molekula  
C) 1 - biosfera; 2 - populatsiya  
D) 1 - populatsiya; 2 - molekula

9. Qaysi javobda organizmlarning ko'payish va rivojlanish jarayoni bilan bog'liq faqat to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan?

1) oq laylak va qaldirg'ochlarning tuxumidan ko'zi va quloq teshigi yumuq jish bola chiqadi; 2) sariq chayon tirik tug'ishi bilan butli o'rgimchakka o'xshaydi; 3) meduza va chuchuk suv gidrasi tanasining ikkiga bo'linishi yo'li bilan ko'payadi; 4) kolorado qo'ng'izi va karam kapalagi tuxumlarini barg ostiga qo'yadi; 5) oq plarnariya va ignatanlilar tanasining ko'p bo'laklarga bo'linishi yo'li bilan ko'payadi; 6) yomg'ir chuvalchangi va qoramol tasmasimon chuvalchangi tuxumlarini pilla ichiga qo'yadi

- A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 6 C) 2, 3, 5 D) 1, 4, 5

10. Olimlarning biologiya fani rivojiga qo'shgan hissalarini aniqlagan kashfiyotlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang. 1) R.Guk - fagotsitoz hodisasi; 2) Koen - ilk bor genlarni klonlash; 3) M.S.Navashin madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlari; 4) D.I.Ivanovskiy - tamaki mozaikasi virusining o'ziga xos xususiyatlari

- A) 2, 4 B) 1, 2 C) 1, 3 D) 2, 3

11. Odamda qonning tomirlarda ivishiga to'sqinlik qiluvchi geparin moddasi qaysi organda sintez qilinadi?

- A) ko'richak o'simtasi B) jigar  
C) buyrak D) o'pkalar

12. Litosfera fitomassasi (a) va gidrosfera zoomassasi (b) tarkibini aniqlang. 1) spirogira; 2) nereida; 3) yomg'ir chuvalchangi; 4) zarang; 5) nemalio; 6) chetan; 7) zaxkash; 8) aureliya.

- A) a-5; b-3; 8 B) a-1, 5 b-2, 8  
C) a-4; b-2, 8 D) a-1, 5; b-3, 7

13. Odamlarda sepkililik sepkilsizlik ustidan to'liq dominantlik qiladi. Jinalak soch esa silliq soch ustidan chala dominantlik qiladi, geterozigotalilarda soch to'liqinsimon bo'ladi. Gemofiliya X jinsiy xromosomada joylashgan retsessiv belgi hisoblanadi. Barcha genlari bo'yicha geterozigotali ayol va silliq sochli, sepkilsiz, sog'lom erkak oilasida tug'ilgan gemofiliya bo'yicha sog'lom, silliq sochli o'g'il bolaning genotipini aniqlang.

- A)  $AaBBX^{HY}$  B)  $aabbX^{HY}$   
C)  $AaBbX^{HY}$  D)  $AABbX^{HY}$

14. Quyidagilardan lansetnik (a) va gorbusha (b) ga xos bo'lgan xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang. 1) ayirish sistemasi bir juft tasmasimon buyrakdan iborat; 2) orqa suzgichi ortida yana bitta suzgichi bor; 3) nerv sistemasi tana bo'ylab ketgan nerv nayidan iborat; 4) yuragi ikki kamerali; 5) muskullari ikki yon tomonida tana bo'ylab uzun tasma shaklida joylashgan; 6) ko'krak umurtqalari, qovurg'alar va to'sh suyagi ko'krak qafasini hosil qiladi

- A) a - 3, 5; b - 1, 4  
B) a - 4, 5; b - 2, 6  
C) a - 1, 2; b - 3, 4  
D) a - 1, 3; b - 4, 5

15. Suv tanqisligida tirik organizmlarning suv bug'lanishini kamaytiruvchi moslanishlarini aniqlang. 1) termitlarning yer osti suvlarigacha yo'l ochishi; 2) alp o'tloqlari o'simliklarida barglarning so'lingirab turishi; 3) sahro baqasi maxsus siydik pufagida suvni zaxiralashi; 4) saksovol barglarining tangachasimon shaklda bo'lishi

- A) 3, 4 B) 2, 4 C) 1, 2 D) 1, 3

16. Qaysi o'simliklarning barglari poyada halqasimon joylashgan bo'ladi?

- A) rayhon, dalachoy, mavrak  
B) qirqbo'g'im, qumrio't, sambitgul  
C) ligustrum, terak, kiyiko't, g'o'za  
D) qirqbo'g'im, nastarin, do'lana, oqquray

17. Odamda ko'z gavhari o'z egikligini o'zgartirishi (a), jismoniy va fiziologik rivojlanishning jadalashuvi (b) qanday ataladi?

- A) a-akseleratsiya; b-akkomodatsiya  
B) a-akkomodatsiya; b-akseleratsiya  
C) a-akseleratsiya; b-adaptatsiya  
D) a-adaptatsiya; b-ateroskleroz

18. Qaysi javobda umurtqali hayvonlar mansub bo'lgan turkum nomlari to'g'ri berilgan?

- A) laqqa - karpsimonlar; sariq ilon - sudralib yuruvchilar  
B) laqqa - karpsimonlar; sariq ilon - tangachalilar  
C) oq amur - suyakli baliqlar; manta - skatlar  
D) gulmoyi - bakra baliqlar; alligator - timsohlar

19. Quyidagi qaysi xususiyatlar mastak uchun xos?

1) mitoxondriyasida aerob parchalanish kuzatiladi; 2) tuxum hujayrasi mitoz bo'linish yo'li bilan hosil bo'ladi; 3) konsument organizm; 4) ochiq urug'li; 5) zaxira holda glikogen to'playdi; 6) hujayrasida birlamchi uglevod sintez qiladi.

- A) 2, 3, 6 B) 2, 4, 5 C) 1, 2, 6 D) 1, 3, 4

20. Gidrobiont organizm hisoblangan tikan-dum skatga xos bo'lgan xususiyatlarni belgilang. 1) suzgich pufagi rezonator vazifasini bajaradi; 2) tog'ayli baliqlar sinfi vakili; 3) suzgich pufagi va jabra qopqog'i bo'lmaydi; 4) yurak qorinchasidan katta qon aylanish doirasi boshlanadi; 5) asosan suv tubida yashaydi; 6) tanasi bo'ylab besh qator romb-simon plastinkalarga ega

- A) 1, 4, 6 B) 2, 3, 5 C) 1, 3, 6 D) 2, 4, 5

21. Nuqtalar o'rniga mos javobni aniqlang. Avstralopitekning bir turi rivojlanib, dastlabki odam ... paydo bo'lgan.

A) homo erectus B) arxantroplar C) paleoantropolar D) homo habilis

22. Atsiklik aminokislotalar juftligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang. 1) valin va triptofan; 2) fenilalanin va gistidin; 3) treonin va arginin; 4) glitsin va metionin

- A) 1, 3 B) 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 2

23. Hindomalay biogeografik o'lkasida tarqalgan orangutang somatik hujayrasida mitoz sikli G2 davridagi DNK (a), xromosoma (b), hujayra markazi (c) va sentriolalar (d) sonini aniqlang.

- A) a-96; b-96; c-2; d-2  
B) a-96; b-48; c-1; d-2  
C) a-48; b-48; c-1; d-2  
D) a-96; b-48; c-2; d-4

24. Lekgorn va Romanov zotlari uchun umumiy bo'lgan ma'lumotlarni belgilang. 1) geterotrof organizm; 2) bosh skeletlilar kenja tipiga mansub; 3) nafas olishda o'pka bilan birga havo xaltachalari ham ishtirok etadi; 4) embrioni bachadonda rivojlanadi; 5) embrioni ona organizmdan tashqarida rivojlanadi; 6) katta qon aylanish doirasi yurakning chap qorinchasidan boshlanadi

- A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 5 C) 1, 2, 6 D) 3, 4, 6

25. Berilganlardan qaysi belgi genlarning komplementar ta'siri tufayli yuzaga chiqadi?

- A) bug'doylarda donning qizil, pushti va oq rangi  
B) xo'rozlarda patning rangli bo'lishi  
C) qoramolda sut miqdori  
D) xushbo'y no'xatda gultojbarglarning qizil rangi

26. Ayolning otasi gemofiliya bilan kasal, onasining ajdodlarida esa gemofiliya uchramagan. Shu ayol somatik hujayrasining mitoz sikli anafaza bosqichida hujayraning bir qutbidagi H (I), h (II) allellari sonini aniqlang.

- A) I-2; II-1 B) I-0; II-1  
C) I-1; II-1 D) I-1; II-2

27. Qaysi xususiyatlar zuhrasoch qirqqulog'ining gametofiti uchun xos?

A) spora hosil qiladi, poyabargli o'simlik  
B) ikki jinsli, yashil, fotosintez qiladi, jinsiz bo'g'in hisoblanadi  
C) jinsiy bo'g'in hisoblanadi, zigota hosil qiladi  
D) zigotadan rivojlanadi, mustaqil oziqlanadi

28. Rasmda odam skeletining tarkibiy qismi berilgan. 3 raqami bilan ko'rsatilgan suyakka xos xususiyatlar to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.


A) o'mrov suyagi bilan birga yelka kamari suyaklari tarkibiga kiradi, vegetativ nerv sistemasi tomonidan boshqariladigan muskullar bilan birikkan  
B) qo'l skeleti tarkibiy qismi, blastotselda joylashgan entoderma qavatidan rivojlanadi  
C) qo'l skeleti tarkibiy qismi, o'mrov suyagi bilan birga yelka kamari suyaklari tarkibiga kiradi  
D) yelka kamari suyaklari tarkibiga kiradi; somatik hujayrasida mitoz siklining profaza davrida hujayra markazi tarkibida 54 ta mikronaycha mavjud

29. Quyidagi berilgan sistematik birliklarga mansub o'simliklarni aniqlang. 1) ikki urug'pal-lalilar sinfi; 2) ochiq urug'lilar bo'limi; 3) qizil suv-otlar bo'limi; 4) ra'nodoshlar oilasi

A) 1 - astragal; 2 - qarag'ay; 3 - yapon laminariyasi; 4 - tobulg'i B) 1 - kanop; 2 - qarag'ay; 3 - nemalion; 4 - kamxastak C) 1 - bo'ritaroq; 2 - baobab; 3 - ulotriks; 4 - maymunjon D) 1 - baobab; 2 - sekvoyadendron; 3 - ulva; 4 - tobulg'i

30. Omar, falanga, termit qaysi belgilariga ko'ra bitta tipga birlashtiriladi? 1) xitindan iborat tana qoplami; 2) ayirish organlarining tuzilishi; 3) murakkab ko'zlar; 4) bo'g'imli oyoqlari; 5) yopiq qon aylanish sistemasi; 6) qorin nerv zanjiri.

- A) 2, 3, 5 B) 3, 4, 5 C) 1, 4, 6 D) 1, 3, 4



# "She'rlarim mag'zi larzon, bolalar uchun arzon..."

Shoirni hali-hanuz yaqinlari, yoki ijodkorlarga emas, badiiyatga aloqasi bo'lmagan kishilar ham esdan chiqargani yo'q. "Huv, o'sha, shlyapa kiyib bozordayam, yo'ldayam, to'ydayam she'r aytib yuradigan kishimi, ammo, zo'r shoir edi", deb xotirlab qo'yishadi.

\*\*\*

O'tgan asrning yetmishinchi, saksoninchi yillarida hatto poytaxt adabiy davrlarida vohamizdan eng ko'p tilga olingan ijodkor, shubhasiz, Saodat Toji edi. O'sha yillari ayniqsa chekka tumanlarda ijod qiladiganlarning markaziy gazeta va jurnallarda she'r yoki hikoyasi chop qilinisa, katta voqea hisoblanar, kitob nashr ettirish esa hammaning ham qo'lidan kelavermasdi. Ammo Saodat Toji bundan mustasno edi. U o'sha davrning eng ilg'or bolalar shoirlari bilan bab-baravar ijod maydonida ot surish imkonini topdi. Buning bari osonlik bilan amalga oshadigan yumush emasdi. U tinimsiz ijod qilar, Toshkentga borish esa unga bozorga borishdek ish bo'lib qolgandi.

\*\*\*

Hozir ham guruhlarida Saodat Toji haqida gap ketadi, hajvchi Tursunboy Boymirov shunday deydi:

— Saodat aka tabiatan boladek beg'ubor, sodda inson edi. Bir kuni yangi she'r yozib, tayyorlov idorasi raisi-

ning oldiga kirib, baland ovozda boshlabdi:

*Yer unumdor, soz bo'lsin,  
Ko'proq eking kartoshka.  
Mashaqqati oz bo'lsin,  
Qulay bo'lsin artishga.*

Rais stolni chertib, shoimi she'r o'qishdan to'xtatibdi.

— Bo'ldi, bo'ldi, tushunarli, shuni she'r qilib aytish shartmidi, — deb shoshib telefon go'shagini ko'taribdi.

— Hoy, Tirkash, o'zingdamisan? Hozir oldingga bir shoimni yuboryapman, ikki xalta kartoshka berib yubor. Uyida kartoshkasi qolmapti...

\*\*\*

Ijodkorlar davrasida suhbat buyuklar haqida bo'ldi.

— Tolstoyga tan berdim. Gyote ham buyuk. Navoiy — daho.

— Bulgakov, Kafkalarini aytmaysizmi?

— Stendal, Qodiriy, Qahhorlar ham chakkimas. Saodat aka, siz qaysi

yozuvchi, shoirlarni buyuklar safiga qo'shasiz?

— Men kecha maktab bolalariga she'r o'qib berayotuvdim, — suhbatga qo'shildi shoir. — Bir qush kelib boshimga qo'ndi. Kichkina, bulbulning rangiga o'xshab ketadi. Keyin yelkamga qo'nib, qulog'imga bir nimalar deb, chug'ur-chug'ur qildi. Ushlab, boshini silayman, degan edim, uchib ketdi. Ana shunda men buyukligimni bildim...

\*\*\*

Bir she'rida shoimning shunday samimiy satrlari bor:

*...She'rlarim mag'zi larzon,  
Bolalar uchun arzon.  
Marhamat, savdo qiling,  
Do'stlarga sovg'a qiling.  
Men ham bir boyib qolay,  
"Damas'mi, "Tiko" olay.  
Toji Saodat bo'lib,  
Turmushidan shod bo'lib,  
Tanilay odamlarga,  
Yer yuzi, olamlarga.*

Ha, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Saodat Toji nomdor shoir edi. Uning "Cho'l qo'shig'i", "Eng yaxshi sovg'a", "Inson sevar yaxshini", "Qushlar bayrami", "Oltin bolta" kabi bolalarga atalgan she'riy kitoblari nashr etilgan. Saodat Tojining nafaqat bolalar

uchun, balki kattalar uchun bitgan o'nlab she'rlari, qissalari borligini, ijod namularini to'plab, "Saodatnoma" nomi bilan qaysidir nashriyotga topshirgan, deb eshitganimiz. Qaniydi, biror mard tadbirkor yoki Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi e'tibor qilib, shoimning kitoblarini chop ettirsa, savobning tagida qolardi. U yashagan uyning devoriga "Bu uyda sevimli bolalar shoiri Saodat Toji yashadi va ijod qildi", degan lavhani osib qo'ysak, zo'r ish bo'lardi-da...

Shoir-ku ming-minglab bolalar (bu bolalarning ayrimlari hozir bobo ham bo'ldi) qalbida o'ziga haykal qo'yib ketdi. Ammo... bir paytlar dilda bir tugun bilan mana bu satrlarni bitgandim:

*U ketdi...  
Mehrniz izlab olisga,  
Qushlari yoniga, gullar yoniga.  
"Shoir bobo" deya  
e'zozlab sevgan,  
Sho'xchan bolalarning  
singib bag'riga.  
Bizdan-ku nom-nishon  
qolmagay balki,  
Bitta so'z aytayin, kelmasin malol.  
Bir kuni she'rparast bolalar albat,  
Qamashida tiklar  
shoirga haykal...*

O'rolboy QOBIL

# "Yaxshi odamlarni eslayveramiz..."

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir she'rga ko'zim tushdi:

*Hayotning azaliy qomuni shudir,  
Shu haqda tinmayin so'zlayveramiz —  
Yomonlar vaqt o'tib unutiladi...  
Yaxshi odamlarni eslayveramiz...*

Meni bir lahzaga o'ylashga majbur qildi bu she'r. Beixtiyor xayolim uzoqlarga uchdi...

Bir xillikdan juda tez zerikaman. Shunday kezlarda xonamdagi jihozlarning o'rmini o'zgartirib, o'zimga yangicha imij yaratishga harakat qilaman. Yaqinda yana xonamdagi kitob javonlarini bo'shatar ekanman, beixtiyor bir daftar e'tiborimni tortdi. U marhum ustozim Zayniddinov Sayfidning tegishli bo'lib, javon ustida, ya'ni har doim uyga ketishidan oldin o'zi qo'yib ketadigan joyda turardi. Xuddi kechagina domlam bu daftarni shu yerga qo'yan-u, hali kelib qo'llariga olib ulgurmagandek. Xuddi hozir eshikdan yolg'ondakam qovoq uyub olgan domlam ko'rinadigandek beixtiyor eshikka qaradim. "Ha, nima qilib o'tiribsiz, nimaga qovog'ingiz soliq, qani gapiring-chi", derdilar domla eshikdan kirar-kirmas...

Daftarni varaqlar ekanman xayolimga bundan rop-pa-rosa bir yil muqaddam xonamni yig'ishtirayotganimda, xuddi mana shu daftarga o'xshash faqat boshqa bir ustozimga tegishli daftarni topganimni esladim. O'shanda yaqindagina marhumga aylangan G'olibxon Hoshimov domlaga tegishli sariq rangdagi daftarni varaqlab turganida Zayniddinov ustoz kirib kelgandi. Ikkinchi marhum G'olibxon domla haqida uzoq suhbatlashgandik. Ajablantiradigan narsa shuki, Hoshimov domla ham ertaga kelib olaman, deb daftalarini shkafning ustida qoldirib ketganicha qaytib kelmagandi. Taqdirni qarangi, har ikkala ustozim ham oldin-keyin bir oyda yurak xastaligi tufayli olamdan o'tdi. Bir yil oldin Hoshimov ustozni yod olar ekanmiz: "G'olibxon

hali o'lmasligi kerak edi, hali uning qiladigan ishi juda ko'p edi", degandi Zayniddinov domla. Har ikkalasi ham haqiqiy bilim bulog'i edi. Shuncha narsani qanday eslab qolasizlar-a, deb hayratlanardim. Xoh dunyoviy, xoh diniy, xoh huquqiy savol bo'lsin, o'zimni qoniqtiradigan javobni olardim. Ulardan o'rganishimiz kerak bo'lgan bilimlar juda ko'p edi. Afsuski, biz doimgidek yo'qotganimizdan keyingina ularning qadrini bilamiz.

Zayniddinov domlaning bir gapi bor edi: "Bu yig'laydigan o'lik emas ekan". Biror muammoga chora topolmay yoki biror nimadan siqilib yurgan vaqtlarimda, meni jim turib eshitardi-da, ko'p bor shu gapni takrorlardim. Avvallari bu iboraga ko'pam e'tibor bermagan ekanman. Ustozimning janozasida qatnashganimda atrofni o'rgan olomonning ko'pligi-yu, yosh-u qarining ko'zidan oqayotgan shashqator yoshlarni ko'rib, o'sha mashhur iborani teranroq tushunganday bo'ldim. Hammaning ortidan ham ko'zyosh to'kaverilmaskan...

Ustoz nafaqat maktabda, balki oilada ham o'rnak qilib ko'rsatsa arziydigan inson edi. Besh farzand — go'yo besh ustun. Hammasi oliy ma'lumotli. Biri o'qituvchi, biri shifokor, ikki qizi ichki ishlar xodimi — biri tergovchi, biri prokuror. Yakka-yu yolg'iz o'g'li esa muhandis. Ustoz turmush o'rtog'i — faxriy pedagog Farida opa Hayitova bilan farzandlarini el koriga yaraydigan, elning dardi bilan yashaydigan insonlar qilib tarbiyalagan. Sizda ham armon bormi domla, deb so'rdim, u kishi farzandlari yutuqlaridan quvonib to'lib toshib gapirib bergan vaqlari. "Bittagina armonim bor. U ham bo'lsa kelinimni oliy ma'lumotli qilish", der edi. Ba'zi birovlarining hatto o'z farzandining o'qishiga e'tiborsizligini ko'rib ustozimning bu orzu-umidlaridan hayratlanardim.

Ustoz shu niyatini amalga oshirish uchun juda ko'p harakat qildi. Kelinini Qarshi davlat universitetining sirtqi bo'limida o'qitish uchun hujjatlarini topshirtirib, imtihonlarga tayyorladi. O'z farzandini kontraktga o'qitishni xohlamaydigan ota-onalarni ko'rganda kelin

uchun qarz bo'lsam ham mayli deb, superkontraktga o'qishga kirganidan quvongan qaynotani qanday ta'riflash kerak. Haqiqiy insoniylik, farzandlar kamoli yo'lidagi haqiqiy fidoyilik shu emasmi aslida? O'shanda ustozning qanchalar quvonganlarini ko'rsangiz edi.

Ustozdagi o'rnak bo'ladigan yana bir jihat — bu tashkilotchilik edi. Gulbog' qishlog'idan Oqsuv daryosining bir irmog'i oqib o'tadi. Uning sel yuvib ketgan qirg'og'ini ta'mirlashda, sel olib ketgan ko'prikn yan-gilashda o'z hisobidan xarajat qilib texnika yonilg'isi, ishchilarning yeyish-ichishlarini ta'minlab, yelib yugurib yo'lni kengaytirdi. Yetim bolalar yoki qiyinchilikka uchragan insonlardan har qanday holatda ham o'z yordamini ayamasdi. Qanchadan qancha bilimga chanqoq o'quvchilarga ustozlik qilib, ularning oliy ma'lumot olib, hayotda o'z yo'lini topib, yetuk inson bo'lishiga hissa qo'shdi.

Maktabda ishlagan chog'lari moddiy tomondan qiy-nalagan o'qituvchilarga yordam berardi. Hech narsa u kishining e'tiboridan chetda qolmas, kimning xafaligi-yu, kimning betobligi, kimning quvonchi-yu, kimning yutug'i yoki qiynaloyotganini ko'zidan anglab, quvonchiga sherik, dardiga hamdard bo'lardi. U kishining ana shu beg'araz va samimiyliyi barchaning qalbidan chuqur joy olgan. Hozirgacha o'qituvchilarning ko'pchiligi ustozning oldidagi qaysidir qarzlarni uzolmaganini aytib yurishadi.

Domla "Hech qachon bironing haqini yemadim, hech qachon bironing hasmiga yomon ko'z bilan qaramadim", deya ko'p takrorlardim va boshqalarga ham shuni bot-bot uqtirardi. Insonlardagi halollik va to'g'ri-so'zlikni qadrlar, o'z manfaatini har narsadan yuqori qo'yadiganlarni ko'rganida nafaratini yashirib o'tirmasdi. Balki ustozdan qolgan yorqin xotiraning asl sababi ham ana shu halollikdandir.

Dilrabo NURIDDINOVA,  
Kitob tumanidagi  
44-maktab direktorning  
o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosari

**Artikov Abdirashid Zairovichning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "G'o'za va kuzgi bug'doy yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyasining samaradorligi" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 18-may kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI.  
Tel/faks: (78) 159-62-84, (71) 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz

**Ishbobayev Timur Bobakulovichning 04.00.02 — Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo ixtisosligi bo'yicha "O'zmetpe ma'danli maydoni geologik tuzilishining xususiyatlari, ma'danlili va oltin ma'danlashuvining istiqbollari" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mineral resurslar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.40.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100060, Toshkent shahri, T.Shevchenko ko'chasi, 11- "A" uy.  
Tel/faks: (71) 256-13-49; e-mail: info@gnpiimr.uz

**Xamrayev Kamol Shuxratovichning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Buxoro vohasining sho'rlangan tuproqlari sho'rini yuvishning suvtejamkor texnologiyasi" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 11-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI.  
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

**G'opporov Farruxjon Farxodjon o'g'lining 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "G'o'zaning S-8295, Kelajak, Jarqo'rg'on, S-5707 navlari sug'orish tartibi va oziqlantirish me'yorlarini ishlab chiqish (Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 11-may kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI.  
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

**Kasimova Zilola G'ulomiddin qizining 23.00.04 — Xalqaro munosabatlari, jahon va mintaq taraqiyotining siyosiy muammolari ixtisosligi bo'yicha "Madaniy diplomatiya asosida davlat ijobiy imijini shakllantirish jarayonlari (Yaponiya va Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi misolida)" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.SS/Tar.21.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-may kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.  
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq\_ilmiy@mail.ru

**Usmanov Durbek Abdixoshimovichning 02.00.10 — Bioorganik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Phlomis turkumiga mansub o'simliklarni kimyoviy tadqiq qilish va ularning biologik faolligi" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 6-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi 77-uy, O'simlik moddalar kimyosi instituti binosi.  
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-73-48, 120-64-75

**O'roqov Sirojiddin Xudayberdiyevichning 03.00.07 — O'simliklar fiziologiyasi va biokimyo ixtisosligi bo'yicha "Zarafshon vodiysi sharoitida marjumbek hosildorligiga ma'danli o'g'itlar ta'sirining fiziologik asoslari" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 11-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali.  
Tel/faks: (71) 264-23-90, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

**Alimov Oqildin Isamudinovichning 23.00.04 — Xalqaro munosabatlari, jahon va mintaq taraqiyotining siyosiy muammolari ixtisosligi bo'yicha "Sharqiy Osiyo mintaqasi energetika xavfsizligini ta'minlashda Yaponiyaning tashqi siyosiy roli" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.SS/Tar.21.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.  
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24, e-mail: sharq\_ilmiy@mail.ru

**Sanoyev Akbar Isomiddinovichning 02.00.10 — Bioorganik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Glycyrrhiza glabra, Amaranthus hypochondriacus va Vitis vinifera o'simliklarini qayta ishlashning ikkilamchi mahsulotlaridan biologik faol moddalarni flyuid ekstraksiya qilish texnologiyalari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 6-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy, O'simlik moddalar kimyosi instituti binosi.  
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-73-48, 120-64-75

**Matyoqubov Suxrobbek Ko'palovichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Turlararo murakkab duragaylarning qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha genetik-sitologik baholash asosida seleksiya uchun boshlang'ich ashyo yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 05/27.02.2020.Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111218, Toshkent viloyati Qibray tumani, Salar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 1-uy. Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti.  
Tel/faks: (71) 150-62-78; e-mail: paxtauz@mail.ru

**Xayitov Maqsadbek Yo'ldashboyevichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Sholi o'simligining morfobiologik xususiyatlari va ularning seleksiyadagi ahamiyati asosida yangi navlar yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020.Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 1-uy. Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.  
Tel/faks: (71) 150-62-78; e-mail: paxtauz@mail.ru

**Samanov Shermuxammad Abdurasulovichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "G'o'zaning genomlararo introgressiv usullari bilan olingan tizmalarining qimmatli xo'jalik belgilarini baholash asosida nav olish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020.Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 1-uy. Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.  
Tel/faks: (71) 150-62-78; e-mail: paxtauz@mail.ru

**Ziyodullayev Anvar Egamberdiyevichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Sianur kislotasi asosida vinil birikmalar sintezi, olingan birikmalarining xossalari va qo'llanilishi" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.T.87.01. raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2020-yil 11-may kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Sho'ro bozor" mahallasi.  
Tel/faks: (95) 144-67-83; e-mail: gup\_tmiix@mail.ru

Toshkent shahar (sobiq Hamza) Yashnobod tumanidagi 69-maktab tomonidan 2012-yil 16-iyunda Sul'tonov Sanjar Shavkatjon o'g'liga berilgan U № 5736559 raqamli SHAHODATNOMA yo'qolgani sababli  
**BEKOR QILINADI.**

O'zbekiston Milliy universitetiga qarashli S.Sirojiddinov nomidagi akademik litsey tomonidan 2018-yilda Abduxolliqova Gulyuz Abdunosirovna nomiga berilgan LN № 345688-raqamli diplom yo'qolganligi sababli  
**BEKOR QILINADI.**

O'zbekiston Respublikasi mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi "Vatanparvar" tashkiloti kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi mehnat jamoasi direktor o'rinbosari Saidqosim Usmonovning turmush o'rtog'i, mehnat faxriysi  
**USMONOVA Shoira ayaning**  
vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.

## Ramazon guruhlari

## Bizni uyg'otuvchi Ro'zi tog'a

— Ey Muhammad ummatlari-i, vaqtiki saha-a-ar!..

Har yili mohi Ramazonda Cho'ligulistonda saharlikka turgan odamlarning quloqlari ostida shu chaqiriq yangragandek bo'ladi. Ro'zadorlar umri shu qishloqda o'tgan Ro'ziboy tog'a Oripovni o'zgacha sog'inch, ehtimom bilan yodga oladilar. Esimizni tanibimizki, qishloq ahlini saharlikka o'sha qadrdon ovozi uyg'otar edi. Katta yoshlilar oddiygina qilib Ro'zi, kichiklar esa Ro'zi tog'a deb murojaat qiladigan bu Xudo rahmati inson o'zining soddaligi, kamtarligi, mehnatkash va mehribonligi bilan bir umrga xotiramizda muhrlanib qoldi.

Ro'zi tog'a kelin bo'lib tushgan xonadonimga yaqin qo'shni bo'lib, yolg'iz ayol Oyimso xolaning to'ng'ich farzandi edi. Oilada uch o'g'lini oq yuvib, oq taragan bu ayol misoli oilamizning bir a'zosi-da bo'lib qolgan. U farzandlarini yetaklab istagan paytlari xonadonimizga kirib kelib, keksa kattabuvim, qaynota-qaynonam bilan dardlashar, maslahatlashar edi. Onaxonning uch o'g'li ham o'zlarini sira begonadek tutishmasdi. Katta opoqimiz — qaynotamning dadasi Mamasoli opoqi, onasi Hodiyaon otincha ena doimo yaxshi taom bo'lsa ularga ilinib, o'rni kelganida Oyimso ona ham ularni yaxshi taomlar bilan siylab dulolarini olgan.

Yillar o'tib yolg'iz boshi bilan uch o'g'lini uyli-joyli qildi, kelinlar tushirdi. Taqdir ekan-da, Ro'zi tog'a boshqa qishloqdan uylanadi, ichku-yov bo'lib kelinning qishlog'iga ketadi. Lekin bir yil o'tar-o'tmas, o'sha joyda qolib ketishni istamasdan qishlog'iga yolg'iz qaytadi. Keksalar aralashlar ham ro'zg'ori tiklanmadi. Boshqa ro'zg'or qilishni maslahat bersalar ko'nmadi. Umrining oxiriga qadar so'qqabosh o'tdi.

Soddagina bu kishi elektr bilan bog'liq ishlarni juda yaxshi bilardi. Qishloqning chirog'i o'chib qoladimi, odamlar yangi uy soladilarni, tog'aga murojaat qilishardi. Ishni pishiq-puxta bajarib, evaziga ish haqi so'ramasdi. Odamlar majburlab ko'ngildan chiqqanini berishardi.

O'sha davrlarda tadbirkorlik ha-

qida tushuncha ham yo'q edi. Ro'zi tog'aning qilgan ishlarini xotirlar ekanman, katta tadbirkor bo'lganligini his qilaman. Quvada juda ko'p qarindoshlari bor edi. Ularning holdan xabar olishga borsa, qishloqqa quruq qo'l bilan qaytmasdi. Ayniqsa, bahorning ilk kunlari qishloqdoshlariga arzimagan pulga meva ko'chatlari keltirib berardi. Andijon tomonlardan esa lampochkalar keltirib, odamlarni xushnud qilardi.

— Qiz bola o'zga yurtga palaxmon toshiday otilar ekan, bolaligingda biror marta salom bermagan odaming ham ko'zingga o'tdek ko'rinar, — deb hikoya qiladi Marg'ilon shahrida yashaydigan, yetmishni qoralay deb turgan Zuvaydaxon. — Bahorning ilk kunlari Yozyovonda ota-onam, jigalarim bag'rida bir kecha qolib, yana Marg'ilonga qaytish uchun uyimiz oldida avtobus kuta boshladim. O'sha paytlarda "Marg'ilon-Moskva kolxozi" yo'nalishidagi avtobus qishloqqa har uch soatda kelib-ketardi. Uzoqdan kutgan ulovimning qorasi ko'rindi. Kutilmaganda Ro'zi tog'am kelib qoldi va bir zum to'xtab turishimni aytdi. Negaligini so'rasam, hozir senga olma, nok ko'chatlaridan olib chiqaman, uyingga borib ekasan, dedi. Javobimni ham kutmay yoshiga nomunosib tez yurish qilib kirib ketdi. O'shanda bir avtobus odam tog'aning chiqishini kutib turishgan. Ko'chatlarni qo'limga tutqazar ekan, shoshib bergan pulimni olmaganlar. "Albatta ko'kartirgin, sinaxta ko'chat. Bollar yeganda meni eslab yurasizlar", degandi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay tog'a olamdan o'tdi. Bergan nihollari bexato ko'kardi. Hozir ham shoxlarini ko'tarolmay meva qiladi. Butun mahallaga tarqatamiz. Yillar davomida quloq yo'yaning baquvvat daraxtlarga qarasham, Ro'zi tog'am yodimga tushadi. Ular uchun Qur'on tilovat qilishni sira kanda qilmayman.

Bunday yorug' xotiralarni ko'plab qishloqdoshlarimdan eshitish mumkin. Oyimso xola va Ro'zi tog'a bir hovlida yashashdi. Yana shu hovlida ukalari Fozil aka oilasi, olti farzandi bilan bir qozondan taomlanishgan. Tog'a jiyanlarini xuddi o'z farzandlaridek yaxshi ko'rgan. Biror marta

o'zining zurriyodi yo'qligidan nolimagan.

"Har kim ekanini o'radi" deganlari chin ekan. Jiyanlaridan shunga yarasha mehr qaytdi. To'ng'ich jiyan Mirzohidning rafiqasi Hurliqoning aytishicha, odamlarni saharlikka uyg'otgach, ularni alohida uyg'otar ekan.

Amakimning mehr bilan: "Mirzohid, saharlikka kech qolasan, tur endi, turaqol, deyxlarini juda-juda qo'msaymiz" deydi u.

Kelin bo'lib tushganimdan keyin Ro'zi tog'a ikki-uch hafta ko'rinmay qoldi. Shunda qaynotam Mamasiddiq ota meni oldilariga chaqirib: "Ro'zi tog'angni yaxshi bilasan, tortinib to'ydan keyin biror marta uyimizga kirmadi. O'zini olib qochyapti. Har kuni uch mahal qozon qaynasa, bir kosa ovqatda rizqi bo'lardi. Hozir ko'chadan ovozi eshitildi, uyga olib kiraman. Doim bizlarnikiga kirganda bir kosa ovqatsiz chiqarmagin. Oilasiz, zurriyodsiz Xudoning mo'min quli", dedilar.

Men Ro'zi tog'ani qaynotam aytganlaridek kutib oldim. Bir kosa taom olib kelib oldilariga qo'yishim bilan baland ovozda:

— E, men ovqat ichmayman, qornim to'q, ichmayman! — dedi. Shunda qaynotam:

— Sen Ro'zining gapiga parvo qilma, ovqatingni ye. Yemas ekan, deb qozonga qaytarib quymagin, — dedilar.

Shu kundan boshlab u kishi deyarli har kuni oilamiz dasturxonida taomlanadigan bo'ldi.

Ro'zi tog'amning ayniqsa mening bolalarimga mehnatlari ko'p singgan. Qaynonam yurtning dasturxonchisi, mahallaning issiq-sovug'i zimmasida. Qolganlar ishga, o'qishga ketishgan bo'lardi. Katta ro'zg'or, keldi-ketdi, ertalab solingan dasturxon xuftonda yig'ilardi. Kunora ikki tandir non yopiladi. Shunday kezlarda bolalarimga qarab turadigan odamga chitoyo sezardim. To'g'risi, kiyim-boshi g'arib, devonasifat Ro'zi tog'aga biron bolasini ishonib berolmas edi... Men esa u ko'chada bo'lsa atay aytib kirardim, bolalarni o'ynatib turardi. Men nonimni yopib olardim. Uni farzandlarim ham xuddi opoqisi kabi yaxshi ko'rishardi. Birin-ketin uch

qaynog'amni uylantirdik. Yangi kelin kelganidan keyin o'n-o'n besh kun tog'a ko'rinmay qolardi. Yana qaynotam boshlab kirib, yangi kelinchak, ovsinimga bir necha yil oldin menga nima deb uqtirgan bo'lsa, shuni takrorlardir. "Ro'zining haqqini olib qo'yinglar, hali zamon kelib qoladi", derdilar biz kelinlarga. Aytganlaridek, ovqatlanayotganimizda yo keyinroq tog'am kelib qolardi. Qornim to'q deyishiga qaramay, dadam albatta ovqatlanishga majburlardi. Bilardiki, o'zleri juda ochiqqan bo'lardi.

Dadamga Soli opoqimiz: "Biz hayotdan o'tib ketganimizda ham Ro'zining rizqini uzmanglar", deb qattiq tayinlagan ekanlar.

Oxirgi paytlarda tog'a umri poyoniga yetayotganini sezgandek, bir to'p surp va boshqa kerakli anjomlarni tayyorlab qo'yibdi.

Betob bo'lib qolgan Ro'zi tog'a qaynotam va qaynonamni chaqirtiribdi:

— Mamasiddiq, Qimmatxon, rozi bo'linglar. Sizlarning juda ko'p taom-ingizni yeganman. Men bu yorug' dunyoda yaxshiliklaringizni qaytara olmadim. Ilohim, Ollohdan qaytsin. Sizlar ham mendan rozi bo'linglar, — debdi.

Doimo sodda, odmi kiyimda yurgan Ro'zi tog'amning yana bir fazilati bor ediki, hamisha yurgan yo'llarida yosh bolalarni shirinliklar bilan siylagan. Ko'chada turnaqator tizilishib, tog'aning ko'chadan o'tishini kutib turgan bolalar hozir o'zleri bir etak nabiralarning bobosi. Yaratgan farzand bilan siylamagan bo'lsa-da, uni qishloq ahli serfarzand, badavlat ota deb bilgan. Oxirgi manzilga kuza-tar chog'ida mahallaning yuzlab bolalari tobuti ustida "Bizdan rozi bo'ling, Ota" deb, qo'lma-qo'l ko'tarib bordilar.

Har Ramazon oyida shu tariqa subhatlarimizda mahallaning tog'asini yodga olamiz va oxiratlar obod, joylari jannatda bo'lsin, deya duo qilamiz.

Bizni uyg'otib turuvchi Ro'zi tog'ajon, chin dunyoda rohatda bo'ling!

O'ktamxon SOLIYEVA

## Marifat

## TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

## Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149, 150. V-4661. Tiraj: 10256.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,  
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

## TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;  
kotihiyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat xushali bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mual-lifga qaytarilmaydi.

## MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
Nabatchi muharrir: Sardor Mustafoyev.  
Nabatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Korxonada manzil: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'za yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6